

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TAIROVA M.M. GIYAZOVA N.B. HAMIDOV M.E.**

# **KORXONA IQTISODIYOTI**

**Uslubiy qo`llanma**

Oliy o`quv yurtlarining iqtisodiy ta`lim yo`nalishlari  
talabalari uchun

**Buxoro-2016**

Uslubiy qo'llanma amal qilayotgan o'quv dasturiga muvofiq tayyorlangan. Unda o'quv dasturida nazarda tutilgan ishchi xodimlar sonini mustaqil belgilash, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi, tejamkorlik rejimiga rioya qilish masalalari bilan shug'ullanish, zamonaviy marketing va menejmentni yo'lga qo'yish hamda joriy ishlab chiqarishni rejalashtirish va rivojlanishning zaruriy prognozlarini amalga oshirish tartiblari yoritilgan. U qisqa nazariy ma'lumot, ko'plab ko'rgazmali va boshqa didaktik materiallar-chizmalar, krossvordlar, jadvallar, nazorat va muhokama uchun savollar, testlarni o'z ichiga qamrab olgan. Uslubiy qo'llanma oily o'quv yurtlarining barcha iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

Методическое пособие подготовлено в соответствии с действующей учебной программой. В нем освещены предусмотренные в учебной программе возможности самостоятельного назначения персонала, производственной техники и технологии, занятия вопросами режима экономии, внедрения элементов современного маркетинга и менеджмента, а также планирование текущего производства и прогнозирование развития. Пособие включает в себя краткий теоретический материал, множество наглядных и других дидактических материалов-схем, кроссвордов, графиков, таблиц, вопросов для контроля и обсуждения, тестов. Методическое пособие предназначено для студентов всех экономических направлений обучения высших учебных заведений.

Toolkit prepared in accordance with the current curriculum. It covers the curriculum stipulated the possibility of independent appointment of personnel, production equipment and technology, employment-saving mode, the introduction of modern marketing and management, as well as the current production planning and forecasting of development. The manual includes a brief theoretical material, a lot of visual and other teaching materials, circuits, crosswords, graphs, tables, and control issues for discussion, tests. Toolkit is designed for students of all economic areas of study in higher education.

**Taqrizchilar:**

Navro'zzoda B.N.– BuxDU turizm kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori,  
Ro'ziyeva D.I.–BMTI«Menejment»kafedrasi mudiri, i.f.n.dots.

Tairova M.M., Giyazova N.B., Hamidov M.E. Korxonalar iqtisodiyoti. Uslubiy qo'llanma. Buxoro, 2016, bet.

## KIRISH

Hozirgi kunda respublika ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va bilim berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib boorish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilda mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining Majlisidagi Ma'ruzasida ta'kidlab o'tganlaridek: "2016-yilda Iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir"<sup>1</sup> bu hozirgi kunda oliy o'quv yurtlari zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi.

Zamonaviy iqtisodchi keng qamrovli bilimlarga ega bo'lishi, nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan bog'lay olishi va o'z tanlagan sohasi bo'yicha haqiqiy bilimdon bo'lishi lozim. Jumladan, bozor iqtisodiyotida samarali faoliyat ko'rsata oladigan va inqirozga qarshi boshqaruv ko'nikmalarini chuqur egallagan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash O'zbekistonning buyuk kelezak sari dadil odimlarini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri sanaladi. Bu oliy maqsadga erishish talabalardan o'z ustida tinmay ishlashni, nazariy va amaliy bilimlarni doimiy ravishda boyitib borishni, ishlab chiqarish iqtisodiyotini, uni oqilona tashkil etish va boshqarish ko'nikmalarini chuqur o'zlashtirishni talab qiladi.

Ushbu uslubiy qo'llanma talabalar uchun amaliy mashg'ulotlarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib, unda amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun qo'yiladigan talablar va kerakli ma'lumotlar bayon etilgan.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy Dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, Xalq so'zi//2016-yil 16-yanvar.

## **Mavzu: “KORXONA IQTISODIYOTI” KURSINING MAZMUNI VA VAZIFASI**

«**Korxonalar iqtisodiyoti**» - aholi va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganuvchi va ochib beruvchi fan. U tabiat va jamiyatning muayyan ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanishining obyektiv qonunlari namoyon bo'lishi va amal qilishiga, shuningdek, korxonalar faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi davlat miqyosida qabul qilinuvchi qoida, normativ va qonun hujjatlariga tayanadi.

Iqtisodiyot – bu odamlar jamiyati, muayyan, cheklangan resurslardan foydalanib, kerakli mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish, odamlar guruhlari o'rtasida taqsimotiga aytiladi.

Korxonalar iqtisodiyoti - qanday yuqorida keltirilgan vazifa ayrim korxonalar chegarisida hal etilishi haqidagi fan.

Mazkur fanning **tadqiqotlari obyekt** bu kichik, o'rta va yirik korxonalar bo'lib, ular turli mulk shakliga ega bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar to'g'risida” gi qonuni asosida tashkil qilinadi. Hozirgi kunda iqtisodiy faoliyatning, moddiy ishlab chiqarishning joriy va istiqbolli rivojlanish strategiyasi hamda mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashning asosiy og'irligi aynan korxonalar “yelkasi” ga yuklatilmoqda.

Korxonalar iqtisodiyotning bir bo'g'ini bo'lib, unda eng malakali kadrlar mujassamlangan hamda samarali boshqaruv - menedjment qo'llanib, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish masalalari hal qilinadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda xarajatlarni minimallashtirish va daromad(foйда)ni maksimallashtirish deyarli har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Fanning **predmeti** bozor munosabatlari sharoitlarida korxonalar faoliyatining nazariy va amaliy asoslarini, korxonalar faoliyatida iqtisodiy qonuniyatlarning namoyon bo'lishini, shuningdek, ularning ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati samaradorligini resurslardan oqilona foydalanish, ratsional boshqaruv, investitsion va tadbirkorlik faolligi asosida oshirish yo'llarini aniqlash bilan ifodalanadi.

Korxonalar iqtisodiyoti kursining **o'rganish predmeti** – korxonaning tijorat tashkiloti sifatidagi mohiyati asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma mablag'lari, ishchi kuchi, investitsiyalarning o'zaro bog'lanishi, o'zaro harakati va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llarini o'rganadi.

Fanning **maqsadi** ta'lim olayotganlarga amaliy iqtisodiy bilimlarni, shuningdek, mustaqil fikrlash hamda olingan axborotlar va mustaqil o'rganish yordamida korxonalar iqtisodiyoti muammolari (masalalari) bo'yicha qaror qabul qilish ko'nikmalarini singdirishdadir. Yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, gap bo'lajak mutaxassislarni ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarish vazifalarini malakali tarzda hal qilish, korxonaning xarajat va

daromadlari qanday yuzaga kelishi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan yo'llarni topish haqida bormoqda.

### **Tayanch iboralar:**

- |                                    |  |
|------------------------------------|--|
| <b>1. Iqtisodiyot;</b>             | <b>5. Ishlab chiqarish;</b>            |
| <b>2. Korxonalar;</b>              | <b>6. Samaradorlik;</b>                |
| <b>3. Korxonalar iqtisodiyoti;</b> | <b>7. Fanning predmeti;</b>            |
| <b>4. Kichik korxonalar;</b>       | <b>8. Fanning mazmuni va vazifasi.</b> |

### **Nazorat savollari:**


1. Korxonalar iqtisodiyotining iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rnini va ahamiyatini izohlang.
2. Korxonalar iqtisodiyotining mazmuni nimadan iborat?
3. Korxonalar iqtisodiyotining tadqiqot obyekti bo'lib nima xizmat qiladi?
4. Fanning predmetini izohlang.
5. Korxonalar iqtisodiyoti kursining vazifalari nimadan iborat?

### **Test savollari:**

1. **Iqtisodiy fanlar tizimida qaysi fan aholi va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganadi va ochib beradi?**
  - A. Iqtisodiyot nazariyasi
  - B. Korxonalar iqtisodiyoti
  - C. Innovatsion iqtisodiyot
  - D. Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyati
2. **Iqtisodiyot atamasi ilk marotaba qaysi olim tomonidan qo'llanilgan?**
  - A. A.Smit
  - B. Arastu
  - C. Ksenofont
  - D. Arximed
3. **... – bu odamlar jamiyati, muayyan, cheklangan resurslardan foydalanib, kerakli mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqarish, odamlar guruhlarini o'rtasida taqsimotiga aytiladi. Nuqtalar o'rniga mos atamani qo'ying?**
  - A. Iqtisodiyot
  - B. Korxonalar iqtisodiyoti
  - C. Mikroiqtisodiyot
  - D. Makroiqtisodiyot
4. **Korxonalar iqtisodiyoti kursining o'rganish predmeti o'z ichiga nima(lar)ni qamrab oladi?**
  - A. asosiy ishlab chiqarish fondlari
  - B. aylanma mablag'lar

- C. ishchi kuchi
  - D. noto'g'ri javob yo'q
- 5. Korxonada iqtisodiyoti kursining o'rganish predmeti o'z ichiga nima(lar)ni qamrab olmaydi?**
- A. investitsiyalarning o'zaro bog'lanishi
  - B. ishchi kuchi
  - C. yalpi talab
  - D. aylanma mablag'lar
- 6. Iqtisodiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga o'z vaqtida kim yuqori baho berib, insonni "homo economicus" - "iqtisodiy odam" deb atagan?**
- A. K.Marks
  - B. A.Smit
  - C. F.Engles
  - D. U.Petti
- 7. Korxonada iqtisodiyoti fanining tadqiqot obyekti bo'lib nima(lar) xizmat qiladi?**
- A. Kichik korxonalar
  - B. O'rta korxonalar
  - C. Yirik korxonalar
  - D. Yuqoridagilarning barchasi
- 8. Fanning predmetini tashkil qiluvchi eng asosiy muammo va masalalar qatoriga nimalarni kiritish mumkin?**
- A. bozor munosabatlarida korxonaning roli, o'rni va xatti-harakatlari hamda davlat idoralari bilan o'zaro aloqalari
  - B. korxonaning tashkiliy strukturasi va boshqaruv mexanizmi;
  - C. ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlashtirish;
  - D. Noto'g'ri javob yo'q

## Mavzuga oid krossvord:



### Savollar:

1. Iqtisodiyot atamasi birinchi marta qaysi olim tomonidan ishlatilgan?
2. Odamlar jamiyati muayyan cheklangan resurslardan foydalanib, kerakli mahsulot yoki xizmatlarni ishlab chiqish, odamlar o'rtasidagi taqsimotga nima deyiladi?
3. Iqtisodiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatiga yuqori bahoberib, insonni "homo economicus" ya'ni, "iqtisodiy odam" deb atagan iqtisodchi olim kim?
4. Iqtisodiyotning asosiy islohotchisi bo'lib kelgan va hozir ham shundayligicha qolgan boshqaruv organi?
5. Huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyat yurituvchi subyektga nima deyiladi?

6. Korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, daromadlarning tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxonalarini tashkil qilish tartibi ko'rsatilgan qonuniy hujjat nima?
7. Umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining yirik birlashuvini nima aks ettiradi?
8. Korxonalar faoliyati samadorligini aniqlab beruvchi tashqi muhit bu...?
9. Moddiy ishlab chiqarishdan ajralgan holda qanday iqtisodiyot mavjud emas?
10. Zamonaviy fan va menejment amaliyoti korxonalarini boshqarishning qabul qilgan eng asosiy tamoyillaridan biri?

### Mavzuga oid "Ha" yoki "Yo'q" texnologiyasi:

№	Mulohazalar
1	«Korxonalar iqtisodiyoti» - aholi va xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'muriy-xo'jalik mexanizmlarini o'rganuvchi va ochib beruvchi fildir
2	Malakali mutaxassis korxonalar iqtisodiyotini yaxshi bilishdan tashqari amaliyotda tez-tez uchrab turuvchi nima yoki qaysi variant yaxshiroq? Qanday yo'l bilan daromadni oshirish va rentabellikni ko'tarish mumkin? Korxonaning ishchi kuchiga ehtiyoji qancha va ularga qanday haq to'lash kerak? Ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki tovarga bo'lgan talabni qay tarzda oshirish mumkin? Kabi savollarga o'z vaqtida va to'g'ri javob bera olishi shart emas.
3	Korxonalar iqtisodiyoti fanining tadqiqotlari obyekti bu - kichik, o'rta va yirik korxonalar bo'lib, ular turli mulk shakliga ega bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida" gi qonuni asosida tashkil qilinadi
4	Korxonalar iqtisodiyoti kursining o'rganish predmetida – korxonaning tijorat tashkiloti sifatidagi mohiyati asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma mablag'lari, ishchi kuchi, investitsiyalarning o'zaro bog'lanishi, o'zaro harakati va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llarini o'rganilmaydi.
5	Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yuqori sifat ko'rsatkichlarini saqlagan holda xarajatlarni minimallashtirish va daromad(foйда)ni maksimallashtirish deyarli har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi.
6	«Korxonalar iqtisodiyoti» kichik, o'rta va yirik korxonalar o'rtasidagi farqlarni, kichik va o'rta korxonalarining yirik korxonalariga nisbatan moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini hamda ularning bozor talablariga tezroq javob berishlarini ko'rsata olmaydi.



7	Korxonalar iqtisodiyotning bir bo'g'ini bo'lib, unda eng malakali kadrlar mujassamlangan hamda samarali boshqaruv – menejment qo'llanib, resurslardan oqilona foydalanish va zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish masalalari hal qilinadi.
8	Moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyot rivojlanishining asosi emas, xo'jalik faoliyatining boshlang'ich nuqtasi ham bo'lmagan.
9	Korxonalar iqtisodiyoti fanining maqsadi ta'lim olayotganlarga amaliy iqtisodiy bilimlarni, shuningdek, mustaqil fikrlash hamda olingan axborotlar va mustaqil o'rganish yordamida korxonalar iqtisodiyoti muammolari(masalalari) bo'yicha qaror qabul qilish ko'nikmalarini singdirishdadir.
10	Korxonalar iqtisodiyoti fanining predmetini tashkil qiluvchi eng asosiy muammo va masalalardan biri bozor munosabatlarida korxonalar roli, o'rnini va xatti-harakatlari hamda davlat idoralari bilan o'zaro aloqalari kiradi.
11	“Iqtisodiyot” atamasi birinchi bor Arastu tomonidan kiritilgan.
12	Iqtisodiyotning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini va ahamiyatiga o'z vaqtida D.Rikardo yuqori baho berib, u insonni “homo economicus” - “iqtisodiy odam” deb atagan.
13	Moddiy ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi real iqtisodiyot mavjud emas.

## **Mavzu: KORXONA MUSTAQIL XO'JALIK FAOLIYATINI YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma'muriy buyruqbozlik xo'jaligidan farqli o'laroq iqtisodiy faoliyat markazi barcha iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lmish – korxonalar tomoniga siljib o'tadi.

Korxonalar – ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo'g'ini bo'lib, unda ilmiy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalari hal etiladi.

Korxonalar ish o'rinlarini beradi ish haqi to'laydi soliqlar to'lash yo'li bilan davlat va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qatnashadi.

Aynan korxonada mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari va ishchini ishlab chiqarish vositalari bilan o'zaro aloqasi amalga oshiriladi.

Korxonalar o'z faoliyatini o'zi boshqaradi, ishlab chiqarilgan mahsulotni olingan sof foydani soliq va boshqa to'lovlarni to'lagandan so'ng qolgan qismini tasarruf etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan, **korxonalar** bu -huquqiy shaxs maqomiga ega, mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ekt bo'lib, o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkidan foydalanish asosida iste'molchilar (xaridorlar) talabini qondirish va daromad (foйда) olish maqsadida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqaradi va sotadi yoki ayirboshlaydi.

Qaysi tarmoqqa qarashliligiga ko'ra korxonalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish (mashinasozlik, ko'mir qazib chiqarish, sug'urta va hokazo) sohalariga mansub bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra, korxonalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo'linadi.

Texnologik umumiylikiga ko'ra, korxonalar ishlab chiqarish jarayonini uzluksiz va diskret ravishda, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi asosida yurituvchilarga bo'linadi.

Tayyor mahsulotning maqsadlariga ko'ra, barcha korxonalar ikkita katta guruhga bo'linadi: ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchilar va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar.

Foydalaniluvchi xom ashyo turiga ko'ra, sanoat korxonalari qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarga taqsimlanadi.

Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra, korxonalar mavsumiy va yil bo'yi faoliyat yurituvchilarga bo'linadi.

Hajmiga ko'ra, korxonalar yirik, mikrofirma va kichik korxonalarga taqsimlanadi.

**Konsern** umumiy manfaatlarga ega hamda shartnomalar, kapital va qo'shma faoliyatda ishtirok etish bilan bog'liq bo'lgan korxonalarining yirik birlashuvini aks ettiradi.

**Konsorsium** kompaniya va banklarning vaqtinchalik birlashuvi natijasida, yirik kapital talab qiluvchi loyihalarni amalga oshirish yoki mablag'ni birgalikda joylashtirish maqsadlari uchun umumiy kelishuvlar asosida yuzaga keladi. Konsorsium buyurtmachilar oldidagi majburiyatlar uchun javobgar hisoblanadi.

**Xo'jalik assotsiatsiyasi** jismoniy yoki huquqiy shaxslarning o'zaro hamkorlik yuritish maqsadida ko'ngilli ravishda birlashuvini anglatadi va unda birlashuvga kiruvchi sub'ektlar o'z mustaqilligini saqlab qoladilar.

**Korporatsiyalar** umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy sub'ekt - huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi. Ko'pincha ular aksiyadorlik (hissadorlik) jamiyatlari shaklida tashkil qilinadi.

Korxonalarining konsentratsiya asosida birlashuvi kartel, sindikat, xolding va moliya-sanoat guruhlari ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish sohasidagi **kartellar** ishlab chiqarish masalalari, narxlar, tovarlarni sotish, ishchi kuchini yollash va shu kabi masalalar bo'yicha kelishuvga asoslanib faoliyat yuritadi.

**Sindikat** – tijorat faoliyatini (ta'minot, sotish, narxning paydo bo'lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan birlashmadir. Sindikat tarkibiga kiruvchi korxonalar huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladilar.

**Trestlar** yuqori darajada markazlashganligi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi.

**Xoldinglar** ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vaizifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shaklini ifodalaydi.

### **Tayanch iboralar:**

- |                                     |                                   |
|-------------------------------------|-----------------------------------|
| <b>1. korxonalar;</b>               | <b>5. Korporatsiya;</b>           |
| <b>2. Konsern;</b>                  | <b>6. Kartel;</b>                 |
| <b>3. Konsorsium;</b>               | <b>7. Sindikat;</b>               |
| <b>4. Xo'jalik assotsiatsiyasi;</b> | <b>8. Trestlar va xoldinglar.</b> |

### **Nazorat savollari:**

1. Korxonaga ta'rif bering.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning qanday turlari bir-biridan farqlantiriladi?
3. Qaysi tarmoqqa qarashlilikiga ko'ra korxonalar qanday turlarga bo'linadi?
4. Yil davomida ishlash muddatiga ko'ra korxonaning qanday turlari mavjud?
5. Konsern va konsoriumning bir-biridan farqini izohlab bering.
6. Sindikatlarning xususiyatlarini sharhlang.

### **Test savollari:**

- 1. Ixtisoslashuv darajasiga ko'ra korxonalar qanday turlarga bo'linadi?**
  - A. ixtisoslashgan, universal, aralash
  - B. davlat, avtomatizasiyalangan, mexanik
  - C. xususiy, hissadorlik, aralash
  - D. moliyaviy, ixtisoslashgan, jamoa
- 2. Foydalanuvchi xomashyo turiga qarab sanoat korxonalari nechiga bo'linadi?**
  - A. qazib chiqaruvchi va qayta ishlovchi
  - B. sanoat va qishloq xo'jaligi
  - C. mexanik va ximik
  - D. mavsumiy va doimiy
- 3. Ishlab chiqarish va texnika munosabatlari belgisi bo'yicha korxonalar bu..**
  - A. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi
  - B. xodimlar o'rtasida ularni huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar
  - C. huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
  - D. tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lgan, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlangan, o'z-o'zini boshqarib faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- 4. Ijtimoiy munosabatlari belgisi bo'yicha korxonalar bu...**
  - A. xodimlar o'rtasida ularni huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar
  - B. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi
  - C. huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan yuridik shaxs

- D. tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lgan, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlangan, o'z-o'zini boshqarib faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- 5. Tashkiliy huquqiy munosabatlar belgisi bo'yicha korxonalar bu..**
- A. xodimlar o'rtasida ularni huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar
- B. huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- C. tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lgan, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlangan, o'z-o'zini boshqarib faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- D. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi
- 6. Moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar belgisi bo'yicha korxonalar bu..**
- A. tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lgan, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlangan, o'z-o'zini boshqarib faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- B. xodimlar o'rtasida ularni huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar
- C. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi
- D. huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- 7. Mulkchilik shakliga ko'ra korxonalar bo'linadi:**
- A. Davlat va nodavlat
- B. Mashinasozlik, metallurgiya
- C. Kichik, o'rta va yirik
- D. Sindikat va kartel
- 8. Tarmoq belgilariga ko'ra korxonalar qanday turlarga bo'linadi?**
- A. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi
- B. xodimlar o'rtasida ularni huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar
- C. tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lgan, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlangan, o'z-o'zini boshqarib faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- D. huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- 9. Ishlab chiqarish va xodimlar soniga ko'ra korxonalar bo'linadi:**
- A. huquqiy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- B. xodimlar o'rtasida ularni huquq va majburiyatlari asosida yuzaga keluvchi munosabatlar
- C. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turlari, ularni tayyorlash texnologiyasiga miqdor va sifat jihatidan mos keluvchi mashinalar tizimi
- D. tarmoqning mustaqil bo'g'ini bo'lgan, o'z-o'zini moliya bilan ta'minlangan, o'z-o'zini boshqarib faoliyat yuritadigan yuridik shaxs
- 10. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko'rinishiga ko'ra korxonalar qanday turlarga bo'linadi?**
- A. sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, moliya-kredit
- B. ishlab chiqarish va noishlab chiqarish
- C. kichik, o'rta, yirik korxonalar

D. ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar

**11. Texnologik umumiyligiga ko'ra korxonalar qanday turlarga bo'linadi?**

A. uzluksiz va diskret, kimyoviy yoki mexanik jarayonlarning ustunligi

B. ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar

C. ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

D. kichik, o'rta, yirik korxonalar

**12. Sindikat - ...**

A. tijorat faoliyatini (ta'minot, sotish, narxning paydo bo'lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan, huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladigan korxonalar birlashmasi

B. umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy sub'ekt-huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi.

C. yuqori darajada markazlashganligi ajralib turadigan, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi

D. moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vazifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shakli.

**13. Trest - ...**

A. yuqori darajada markazlashganligi ajralib turadigan, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo'qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi

B. moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vazifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shakli

C. umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy subyekt-huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi.

D. tijorat faoliyatini (ta'minot, sotish, narxning paydo bo'lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan, huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladigan korxonalar birlashmasi

**14. Xolding - ...**

A. moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vazifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shakli

B. tijorat faoliyatini (ta'minot, sotish, narxning paydo bo'lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan, huquqiy hamda xo'jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladigan korxonalar birlashmasi

C. umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy subyekt-huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig'indisini tavsiflaydi.

**D.** yuqori darajada markazlashganligi ajralib turadigan, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo‘qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi

**15. Korporatsiya - ...**

**A.** umumiy maqsadlarga erishish, hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadida birlashib, mustaqil huquqiy subyekt-huquqiy shaxsni tashkil qiluvchi shaxslar yig‘indisini tavsiflaydi.

**B.** tijorat faoliyatini (ta'minot, sotish, narxning paydo bo‘lishi) hamkorlikda tashkil qilishga asoslangan, huquqiy hamda xo‘jalik yuritish mustaqilliklarini saqlab qoladigan korxonalar birlashmasi

**C.** yuqori darajada markazlashganligi ajralib turadigan, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar ishlab chiqarish, tijorat va huquqiy mustaqilliklarini yo‘qotib, yagona reja asosida faoliyat yuritadi

**D.** moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish hamda ishlab chiqarish quvvatlari bilan vazifalarni tezkor ravishda amalga oshirish imkonini beruvchi boshqaruvning samarali shakli


**Mavzuga oid “Ha” yoki “Yo’q” texnologiyasi**

<b>T/R</b>	<b>Mulohazalar</b>	<b>javob</b>
<b>1</b>	Birlik, birdamlik, yaxlitlik aslida hayotning ijobiy kategoriyalari hisoblanadi.	
<b>2</b>	Mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko‘rsatish muayyan texnologik jarayonlar, mehnat qurollari materiallari, odamlarning bilimi va ko‘nikmalari ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyalashga asoslangan holda mustaqil amalga oshiriladigan tizimga aytiladi.	
<b>3</b>	Korxonalar ish o‘rinlarini beradi ish haqi to‘laydi soliqlar to‘lash yo‘li bilan davlat va ijtimoiy dasturlarni amalga oshirishda qatnashadi.	
<b>4</b>	Korxonalar o‘z faoliyatini o‘zi boshqaradi, ishlab chiqarilgan mahsulotni olingan sof foydani soliq va boshqa to‘lovlarni to‘lagandan so‘ng qolgan qismini tasarruf etmaydi	
<b>5</b>	Har bir mamlakatning sanoat quvvati hamda fan-texnika taraqqiyoti va iqtisodiyotni modernizatsiyalash ko‘rsatkichlarini birinchi o‘rinda yirik korxonalar belgilab beradi.	
<b>6</b>	Zamonaviy korxonalar – mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt bo‘lib, ularning ishlab chiqarish vositalari va boshqa mulklari rejali iqtisodiyot sharoitlaridagidek davlatning o‘zigagina tegishli bo‘ladi	
<b>7</b>	Korxonalar faoliyati samaradorligini aniqlab beruvchi tashqi muhit – bu, birinchi o‘rinda mahsulot iste‘molchilari, xomashyo va boshqa material yetkazib beruvchilar, shuningdek davlat organlari hamda korxonaga yaqin joyda yashovchi aholi	



	hisoblanadi.	
<b>8</b>	Korxonalar – ijtimoiy ishlab chiqarishning bosh bo‘g‘ini bo‘lib, unda ilmiy iqtisodiyotning asosiy iqtisodiy masalalari hal etilmaydi .	
<b>9</b>	Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham raqobatchilikni yengib, samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda ololmaydi.	
<b>10</b>	Ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi va ko‘rinishiga ko‘ra, korxonalar sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, moliya-kredit va boshqalarga bo‘linadi.	

**Mavzuga oid krossvord:**



**Savollar:**

1. ... - ijtimoiy talablarni qondiruvchi va sof foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish bajaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi iqtisodiy subyektdir. Nuqtalar o'rniga mos atamani toping?
2. Konsentrasiyalash, ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash bular korxonalar faoliyatining nima(s)ini ishlab chiqarish shakllari ?
3. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki bozor iqtisodiyoti sharoitlarida barcha korxonalar ham nima(ni) yengib samarali ishlab keta olmaydi hamda daromad yoki foyda ololmaydi?



4. O'zbekiston Respublikasining nimasiga asosan korxonalar bu huquqiy shaxs maqomiga ega mustaqil ravishda xo'jalik faoliyati yurituvchi subyekt bo'lib o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalanish asosida istemolchilar talabini qondirish va daromad olish maqsadida mahsulot ishlab chiqaradi yoki ayirboshlaydi?
5. Korxonalarining faoliyati milliy iqtisodiyot va uning nimalariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi?
6. Har bir korxonalar nima asosida faoliyat yuritadi?
7. Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish tuzilmasining 3 xil usuli mavjud texnologik, predmetli va ....?
8. Yordamchi sexlar asosiy ishlab chiqarishni asbob uskunalar hamda nimalar bilan ta'minlaydi?
9. Ixtisoslashuv darajasiga ko'ra korxonalar ixtisoslashgan, aralash va yana qanday korxonalariga bo'linadi?
10. Hajmiga ko'ra korxonalar yirik, kichik korxonalar va ..... ga taqsimlanadi?

## **Mavzu: KORXONANI TASHKIL ETISH VA FAOLIYATINI TO'XTATISH**

Yangi korxonani tashkil qilish quyidagi tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- korxonani tashkil qilish fikrining paydo bo'lishi;
- korxonalar muassislarini tanlash;
- taklif qilinayotgan mahsulotga bozordagi talabni o'rganish;
- korxonalar Nizom jamg'armasini tuzish uchun moliya manbalarini aniqlash;
- korxonalarining ta'asis hujjatlari va biznes-rejasini tayyorlash;
- davlat ro'yxatidan o'tish;
- muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarni tayyorlash;
- soliq idoralarida ro'yxatdan o'tish.

O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi qonuniga asosan, korxonalar mulk egasi (egalari) yoki u (ular) tayinlagan vakillik organi, mehnat jamoasi yoki muassislar guruhining qarori bo'yicha belgilangan qonun-qoidalariga asosan tashkil qilinishi mumkin.

Ta'asis hujjatlarini tayyorlash korxonani tashkil etish va keyingi faoliyat yuritish jarayonidagi muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ta'asis hujjatlari faoliyat yurituvchi korxonalarining huquq va majburiyatlarini hamda sharoitlarini ifodalaydi.

Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida ikki xil ta'asis hujjatlari belgilab berilgan:

**Korxonalar Nizomi;**

**Ta'asis shartnomasi.**

Amaliyotda korxonalar faqat Nizom yoki faqat ta'sis shartnomasi asosida, shuningdek, bir vaqtning o'zida Nizom va ta'sis shartnomasiga asosan faoliyat yuritish hollari mavjud.

**Korxonalar Nizomi** asosiy ta'sis hujjati bo'lib, unda korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli, nomi va manzilgohi, Nizom jamg'armasining miqdori, daromadlarining tarkibi va taqsimlanish tartibi hamda korxonalar fondlarini tashkil qilish tartibi, korxonani tugatish va qayta tashkil qilish tartibi ko'rsatilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, korxonalar Nizomi uning huquqiy maqomini, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

**Ta'sis shartnomasi** korxonaning tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyatning boshlanishini tavsiflovchi hujjatdir. U shuningdek, tashkil etilayotgan korxonaning Nizomini to'ldiruvchi hujjat ham hisoblanadi. Ta'sis shartnomasida korxonani tashkil qilish tartibi, daromad va xarajatlarni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash shartlari, korxonalar tashkilotchilari (muassislar) tarkibidan chiqish shartlari belgilab qo'yiladi.

Korxonani ro'yxatga olish uchun quyidagi **hujjatlar** talab qilanadi:

1. Korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ariza.
2. Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror.
3. Korxonalar Nizomi.
4. Ta'sis shartnomasi yoki korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan Nizom jamg'armasining kamida 50% miqdoridagi qismi to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar.
5. Davlat bojini to'laganlik haqida guvohnoma.
6. Monopoliyaga qarshi muassasaning korxonani tashkil qilishga roziligini tasdiqlovchi hujjat.
7. Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvatlash qo'mitasi yoki uning quyi idoralari roziligi haqidagi hujjat.

Korxonani **qayta tashkil qilish** – bu, uning birlashib ketishi, qo'shilishi, bo'linishi, ajralib chiqish va shaklini o'zgartirishi degani. Korxonani qayta tashkil qilish ta'sischi (ta'sischi) yoki korxonalar boshqaruvi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi. Qayta tashkil qilish korxonaning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalgiga nisbatan yaxshilanishiga xizmat qilishi lozim.

Korxonani **tugatish** huquqiy xatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi. Korxonalar tugatilganda u davlat ro'yxatidan chiqariladi, uning bankdagi hisob raqami yopiladi hamda muhr, shtamp va boshqa rekvizitlari haqiqiy emas deb hisoblanadi. Korxonani tugatishda tugatish komissiyasi tuzilib, unga kreditorlarga korxonalar tugatilganini xabar qilish, kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzini undirish choralari ko'rish, shuningdek, korxonaning tugatilishi sababli ishsiz qolgan xodimlar ish bilan ta'minlanishiga yordamlashish vazifasi yuklanadi.

#### **Tayanch iboralar:**

- |                                    |   |
|------------------------------------|---|
| <b>1. korxonani tashkil etish;</b> | <b>6. Davlat boji;</b>                    |
| <b>2. ta'sischi;</b>               | <b>7. Korxonani qayta tashkil qilish;</b> |

3. korxononon Nizomi;
4. ta'sis shartnomasi;
5. korxononon ro'yxatga olish;

8. korxononon boshqaruvi qarori;
9. Korxononon tugatish;

#### Nazorat savollari:

1. Korxononon tashkil etish degonda nimani tushunasiz?
2. Korxononon tashkil etishda qanday tamoyillardan foydalaniladi?
3. Korxonononlar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarida necha xil ta'sis hujjatlari belgilab berilgan?
4. Korxononon Nizomini izohlab bering.
5. Ta'sis shartnomasi degonda nimani tushunasiz?
6. Korxononon ro'yxatga olish uchun qanday hujjatlartalab qilanadi?
7. Korxononon qayta tashkil qilishva korxononon tugatish qanday hollarda amalga oshiriladi?

#### Test savollari:

1. Korxonononning ta'sis hujjatlarini ko'rsating?
  - A. korxononon Nizomi, ta'sis shartnomasi
  - B. korxonononni yuridik manzili, hisob raqami
  - C. korxonononning hisob raqami ,STIR
  - D. korxonononning ta'sisshartnomasi
2. Korxononon Nizomida...
  - A. biznes-reja, hisobraqamidagivakassadagimablag'lar, korxonononningasosiyfondlarivakadrlarsalohiyatiko'rsatiladi
  - B. korxonononningtashkiliyhuquqiyshakli, nomi, manzilgohi, Nizomjamg'armasiningmiqdori, daromadlarningtarkibi, korxonononitugatishvaqaytatashkilqilishtartibiko'rsatiladi
  - C. korxonononning ta'sis shartnomasi, aylanma fondlari va samaradorlik ko'rsatiladi
  - D. ishlab chiqariladigan mahsulot turi va hajmi, ishlovchilar maoshi ko'rsatildadi
3. Korxononon Nizomi..... ro'yxatga olinadi.
  - A. Mahalliy hokimiyat organlarida
  - B. Mahalliy soliq organlarida
  - C. Tijorat banklarida
  - D. Uy xo'jaliklarida
4. Davlat ro'yxatidan o'tish uchun korxononon...
  - A. korxonononning tashkil qilish to'g'risidagi qaror, korxononon Nizomi, ariza, davlat bojini to'langanligi haqida guvoohnoma
  - B. biznes-reja, korxononon Nizomi, ta'sis shartnomasi, ariza
  - C. korxonononni tashkil etish maqsadi va vazifalari, korxonononni shtampi va muhri
  - D. korxononon rahbari haqida to'liq ma'lumot, soliq idoralarning roziligi
5. Korxonononni qayta tashkil etish...

- A. Bu - uning birlashib ketishi, qo‘shilishi, bo‘linishi, ajralib chiqish va shaklini o‘zgartirishi degani
  - B. bu, huquqiy hatti-harakat bo‘lib, ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish faoliyatining to‘xtalishini anglatadi
  - C. bu, korxonani ochilishi va ning to‘xtalishini anglatadigan akt
  - D. korxonani nochorligini anglatadigan akt
- 6. Korxonani tugatish deganda nima tushuniladi?**
- A. bu, korxonani ochilishi va ning to‘xtalishini anglatadigan akt
  - B. Bu - uning birlashib ketishi, qo‘shilishi, bo‘linishi, ajralib chiqish va shaklini o‘zgartirishi degani
  - C. bu, huquqiy hatti-harakat bo‘lib, ishlab chiqarish va xo‘jalik yuritish faoliyatining to‘xtalishini anglatadi
  - D. korxonani nochorligini anglatadigan akt
- 7. Korxonani ta'xischilari kimlar?**
- A. Korxonani ro‘yxatga oluvchilar
  - B. Korxonani tashkil etuvchilar
  - C. Korxonani rahbarlari
  - D. Korxonani ishchi-xodimlari
- 8. Bir kishi tomonidan tashkil etilgan firmaning ta'xis hujjati nima?**
- A. Ta'xis majlisi bayonnomasi
  - B. Ta'xis majlisi qarori
  - C. Ustav
  - D. Ta'xis shartnomasi
- 9. Firmani ro‘yxatdan o‘tkazish uchun kerakli hujjatlar nimalar?**
- A. Ariza, ta'xis hujjatlari, tuman hokimligi ruxsati
  - B. Ariza, ruxsat beruvchi hujjatlar, biznes-reja
  - C. Ariza, ta'xis hujjatlari, biznes-reja
  - D. Ariza, ta'xis hujjatlari, ruxsat beruvchi hujjatlar
- 10. Yakka tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tishi uchun kerakli hujjatlar nimalardan iborat?**
- A. Ariza, pasport, rasm
  - B. Ariza, biznes-reja
  - C. Ariza, pasport, biznes-reja
  - D. Ariza, pasport, rasm, mahalla qo‘mitadan ma'lumotnoma
- 11. Qishloqda joylashgan mikrofirmani kim ro‘yxatdan o‘tkazadi?**
- A. Tuman ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyasi
  - B. Tuman hokimligi maxsus bo‘limi
  - C. Tuman soliq inspeksiyasi
  - D. Qishloq mahalla qo‘mitasi
- 12. Viloyat markazida joylashgan xususiy korxonani kim ro‘yxatdan o‘tkazadi?**
- A. Viloyat hokimiyati
  - B. Viloyat soliq boshqarmasi
  - C. Shahar soliq inspeksiya
  - D. Shahar ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyasi

**13. Viloyat markazida joylashgan kichik korxonani kim ro'yxatdan o'tkazadi?**

- A. Shahar ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi
- B. Viloyat soliq boshqarmasi
- C. Viloyat statistika boshqarmasi
- D. Shahar soliq inspeksiya

**14. Tuman markazida joylashgan aksiyadorlik jamiyatni kim ro'yxatdan o'tkazadi?**

- A. Tuman ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasi
- B. Tuman hokimligi
- C. Tuman adliya bo'limi
- D. Tuman statistika bo'limi

**15. Yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazish uchun kerakli hujjatlar?**

- A. Ariza, ustav, ta'sis shartnomasi, ruxsat beruvchi hujjatlar
- B. Ustav, ruxsat beruvchi hujjatlar, muhr va tamg'a
- C. Ta'sis shartnomasi, muhr va tamg'a
- D. Ruxsat beruvchi hujjatlar, biznes-reja, ichki ishlar bo'limi ma'lumotnomasi

**Mavzuga oid "Ha" yoki "Yo'q" texnologiyasi:**

T/R	Mulohazalar	javob
1	Korxonada mulkini shakllantirish va undan foydalanish nizom va ta'sis shartnomasi muhim qismi hisoblanmaydi.	
2	Mahsulot sotishdan va boshqa turdagi faoliyatdan olingan daromadlar korxonada mulkini shakllantirish manbalari hisoblanadi.	
3	Davlat korxonalarining mulkiy huquqlarini kafolatlamaydi.	
4	Korxonada nizomi korxonalar tashkil qilinishi va yakka tarzda yoki hamkorlikdagi faoliyati boshlanishini tavsiflovchi hujjat.	
5	Korxonani ro'yxatga olish uchun 7ta kerakli hujjatlar talab qilinadi	
6	Korxonani qayta tashkil qilish bu uning birlashib kelishi, qo'shilishi, bo'linishi, ajralib chiqishi va shaklini o'zgartirishi degani.	
7	Korxonani tugatish huquqiy xatti-harakat emas.	
8	Hokimiyatlar korxonani ro'yxatga olish to'g'risidagi ma'lumotni 10 kun mobaynida Moliya vazirligiga yagona davlat resstriga kiritish uchun taqdim etilishi shart	
9	Yangi korxonani tashkil qilish bir qancha tashkiliy tamoyillar asosida amalga oshadi.	
10	Korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar 3 xil ta'sis hujjatlari belgilab berilgan	
11	Korxonani tugatish huquqi yxatti-harakat bo'lib, ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish faoliyatining to'xtatilishini anglatadi	
12	Sanastiya davlat, bank yoki boshqa muassasa tomonidan bankrot bo'lishning	

	oldini olish va raqobatbardoshlik darajasini oshirish maqsadida korxonalarining moliyaviy ahvolini yaxshilashni anglatadi	
13	Korxonalar joylashgan manzilgohi bo'yicha davlat organlarida ro'yxatga olingan kundan boshlab tashkil qilingan hisoblanadi	
14	Davlat ro'yxatidan o'tish uchun korxonani tashkil qilish to'g'risidagi qaror, korxonalar Nizomi (ta'sis shartnomasi) va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriluvchi ro'yxatdagi boshqa hujjatlar taqdim etilmaydi.	
15	Korxonani davlat tomonidan ro'yxatga olish zarur hujjatlar ilova qilingan ariza berilgan kundan boshlab 20 kun mobaynida amalga oshirilishi lozim	
16	Korxonalar tashkil qilinishini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar bu korxonalar Nizomi va ta'sis shartnomasi bo'lib, ba'zi hollarda korxonalar ko'rsatilgan hujjatlarning bittasi asosida ham faoliyat yuritishi mumkin	
17	Ta'sis shartnomasi asosida ko'pincha kichik korxonalar, xo'jalik o'rtoqliklari va shu kabi subyektlar faoliyat yuritadi	

### **Mavzu: KORXONANI BOSHQARISH**

Boshqaruv jamiyat munosabatlarining muhim ko'rsatkichi sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalariga tegishlidir. U insonning jamiyatdagi mohiyati, mehnati taqsimoti, kooperatsiya va muomala zarurati, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlardan kelib chiqadi.

Bundan kelib chiqqan holda **boshqaruv** - ijtimoiy mehnat jarayoniga ishlab chiqarish rivojlanishining obyektiv qonunlari asosida yo'naltirilgan tarzda ta'sir o'tkazish tizimi, har bir ishchining va butun jamoaning mehnatini bir vaqtning o'zida nazorat qilish, motivatsiya va tartibga solish usulidir. Moddiy boyliklar va ne'matlar hamda ularga tenglashtirilgan qadriyatlarni taqsimlash, iste'mol qilish va ayirboshlash ham boshqaruvni talab qiladi.

Korxonani **boshqarishning maqsadlarini** quyidagi turlarga bo'lib tasniflashimiz mumkin:

- amalga oshirish muddatiga ko'ra - joriy va istiqbolli;
- ahamiyat darajasiga ko'ra - asosiy (strategik) va ikkinchi darajali (taktik);
- boshqaruv obyektiga munosabatiga ko'ra - xususiy va umumiy;
- natijaga erishish darajasiga ko'ra - yakuniy va oraliq yoki bosqichli.

**Boshqaruv qarori** - boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo'g'indir. Boshqaruvning maqsad va vazifalarini amalga oshirish ko'p jihatdan qarorlarning to'g'ri qabul qilinishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv qarori bir tomondan asosan korxonaning rahbarlari tomonidan amalga oshiriluvchi mantiqiy-fikriy faoliyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, emotsional-psixologik xatti-harakatdir.

Boshqaruv qarorlari quyidagi belgilar bo'yicha tasniflanadi:

- **kompetentlik va mas'uliyat bo'yicha** - yakka tarzda yoki kollegial (*jamo*a) boshqaruv qarorlari;
- **mazmuni bo'yicha** - ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy boshqaruv qarorlari;

- **xarakteri bo'yicha** - operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-rahbarlik va me'yoriy boshqaruv qarorlari;
- **ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha** - bir va ko'p darajali boshqaruv qarorlari;
- **ta'sir ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha** - ichki va tashqi;
- **ta'sir ko'rsatish miqyosi bo'yicha**- xususiy va umumiy (majmuaviy);
- **ta'sir ko'rsatish davri bo'yicha**- bir martalik va ko'p martalik.

**Tashkiliy tuzilma** deganda korxonada boshqaruvi funksiyalarini bajaruvchi turli xil bo'lim, xizmat va bo'linmalar tarkibi, o'zaro munosabatlari va bir-biriga bo'ysunishini tushunish lozim.

Boshqaruv elementlari va bo'g'inlari o'rtasidagi aloqalarning shakli, tuzilmaviy bo'linmalarining moslashuvchanligi va bir-biriga bo'ysinuvchanligiga ko'ra, boshqaruvning quyidagi tashkiliy tuzilmalari mavjud:

- chiziqli;
- funksional;
- aralash (chiziqli-funksional);
- matritsali.

**Chiziqli tuzilma** boshqaruv tuzilmasining eng ko'p tarqalgan turi bo'lib, unga ko'ra boshqaruvning har bir bo'g'ini o'zidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega bo'ladi va barcha masalalar bitta aloqa kanali orqali hal etiladi.

**Boshqaruvning funksional tuzilmasi** uchun boshqaruv va obyekt funksiyalari bo'yicha boshqaruv yacheykalari yaratish tavsiflidir. Bu yacheykalar bajarilish ish art bo'lgan qarorlarni boshqaruvning quyi pog'onasiga yoki bevosita ishlab chiqarish bo'g'inlariga yetkazib beradi.

Boshqaruvning funksional tuzilmasi amalda chiziqli tuzilma bilan kesishib o'tadi. Bunday sintez chiziqli yoki funksional tuzilmaga qaraganda **boshqaruvning chiziqli-funksional tuzilmasini** samaraliroq bo'lishi va keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Bu holda boshqaruv ham chiziqli, ham funksional rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi.

**Boshqaruvning matritsali tuzilmalari** turli xil bo'lib, ularning barchasi bitta tamoyilda - ishlab chiqarishni vertikal va gorizontaal boshqarishda boshqaruv funksiyalarini tashkiliy tuzilmalar o'rtasida qayta taqsimlash asosida yaratilgan.

#### **Tayanch iboralar:**

- |                          |                             |
|--------------------------|-----------------------------|
| 1. Boshqaruv;            | 7. Tashkiliy tuzilma;       |
| 2. Korxonada boshqaruvi; | 8. Chiziqli tuzilma;        |
| 3. Boshqaruv tizimi;     | 9. Funksional tuzilma;      |
| 4. Boshqaruv faoliyati;  | 10. Aralash tuzilma;        |
| 5. Boshqaruv maqsadlari; | 11. Matritsali tuzilma;     |
| 6. Boshqaruv qarori;     | 12. Boshqaruv funksiyalari. |

#### **Nazorat savollari:**

1. Boshqaruvning korxonalar faoliyatida tutgan o'rni qanday?
2. Korxonani boshqarishning maqsadlari nimalardan iborat?

3. Boshqaruv qarori nima, uni izohlab bering?
4. Boshqaruv qarorining qanday turlari mavjud?
5. Ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha boshqaruv qarorlari qanday turlarga bo'linadi?
6. Tashkiliy tuzilma deganda nimani tushunasiz?
7. Chiziqli va funksional tuzilmaning bir-biridan farqini izohlang.

#### **Test savollari:**

1. **Kompetentlik va mas'ulit bo'yicha boshqaruv qarorlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. yakka tarzda yoki kollegial
  - B. ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy
  - C. operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-rahbarlik va me'yoriy
  - D. ichki va tashqi
2. **Mazmuni bo'yicha boshqaruv qarorlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy
  - B. yakka tarzda yoki kollegial
  - C. operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-rahbarlik va me'yoriy
  - D. ichki va tashqi
3. **Xarakteri bo'yicha boshqaruv qarorlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. yakka tarzda yoki kollegial
  - B. ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy
  - C. operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-rahbarlik va me'yoriy
  - D. ichki va tashqi
4. **Ta'sir ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha boshqaruv qarorlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. yakka tarzda yoki kollegial
  - B. ilmiy-texnik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy
  - C. operativ-taqsimlovchi, xo'jalik-rahbarlik va me'yoriy
  - D. ichki va tashqi
5. **Ta'sir ko'rsatish darajasi bo'yicha boshqaruv qarorlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. bir va ko'p darajali
  - B. ichki va tashqi
  - C. xususiy va umumiy
  - D. bir marta va ko'p marta
6. **Ta'sir ko'rsatish miqyosi bo'yicha boshqaruv qarorlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. xususiy va umumiy
  - B. bir va ko'p darajali
  - C. ichki va tashqi
  - D. bir marta va ko'p marta
7. **Ta'sir ko'rsatish davri bo'yicha boshqaruv qarorlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. bir marta va ko'p marta



- B. bir va ko‘p darajali
- C. ichki va tashqi
- D. xususiy va umumiy

**8. Boshqaruvning quyidagi tashkiliy tuzilmalari mavjud:**

- A. chiziqli, funksional, aralash, matritsali
- B. ishlab chiqarish, tashish, saqlash, iste‘mol qilish
- C. mahsulotli, tovarli, matritsali
- D. bir qirrali va ko‘p qirrali

**9. Chiziqli tuzilmada...**

- A. boshqaruvning har bir bo‘g‘ini o‘zidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega bo‘ladi va barcha masalalar bita aloqa kanali orqali haletiladi
- B. boshqaruv va obyekt funksiyalar bo‘yicha taqsimlanadi
- C. ishlab chiqarishni vertikal va gorizontaldoshqarishda boshqaruv funksiyalarini tashkiliy tuzilmalar o‘rtasida qayta taqsimlanadi
- D. chiziqli va funksional tuzilmalar birgalikla olib boriladi

**10. Funksional tuzilmada...**

- A. boshqaruv va obyekt funksiyalar bo‘yicha taqsimlanadi
- B. boshqaruvning har bir bo‘g‘ini o‘zidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega bo‘ladi va barcha masalalar bita aloqa kanali orqali hal etiladi
- C. ishlab chiqarishni vertikal va gorizontaldoshqarishda boshqaruv funksiyalarini tashkiliy tuzilmalar o‘rtasida qayta taqsimlanadi
- D. chiziqli va funksional tuzilmalar birgalikla olib boriladi

**11. Aralash tuzilmada...**

- A. chiziqli va funksional tuzilmalar birgalikla olib boriladi
- B. boshqaruvning har bir bo‘g‘ini o‘zidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega bo‘ladi va barcha masalalar bita aloqa kanali orqali hal etiladi
- C. boshqaruv va obyekt funksiyalar bo‘yicha taqsimlanadi
- D. ishlab chiqarishni vertikal va gorizontaldoshqarishda boshqaruv funksiyalarini tashkiliy tuzilmalar o‘rtasida qayta taqsimlanadi

**12. Matritsali tuzilmada...**

- A. tashkiliy tuzilmalar o‘rtasida qayta taqsimlanadi
- B. boshqaruvning har bir bo‘g‘ini o‘zidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega bo‘ladi va barcha masalalar bita aloqa kanali orqali hal etiladi
- C. boshqaruv va obyekt funksiyalar bo‘yicha taqsimlanadi
- D. ishlab chiqarishni vertikal va gorizontaldoshqarishda boshqaruv funksiyalarini chiziqli va funksional tuzilmalar birgalikla olib boriladi

**13.... jamiyat munosabatlarining muhim ko‘rsatkichi sifatida jamiyat hayotining barcha jabhalariga tegishlidir. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.**

- A. Rejalashtirish
- B. Boshqarish
- C. Nazorat qilish
- D. Bashorat qilish

**14. Boshqaruv ijtimoiy hayotda nimaga qiyoslanadi?**

- A. Oilaga
  - B. Hosilning unishiga
  - C. Drijor va orkestrga
  - D. To'g'ri javob yo'q
- 15. Boshqaruv alohida tizim sifatida tobora ko'proq qnday sohalar vositasi bo'lib bormoqda?**
- A. tajriba almashish sohasi
  - B. reklama
  - C. Barchasi to'g'ri
  - D. Ishlab chiqarish vazifalarini tezkor hal qilish
- 16. O'zaro aloqada va ma'lum jihatdan bir-biriga bo'ysinuvchi bo'lgan boshqaruv ... faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida boshqaruvning muhim elementlari hisoblanadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.**
- A. Obyekti va subyekti
  - B. asbob - uskuna
  - C. Xodimlar
  - D. Raqobatchilari
- 17. Boshqaruv obyekti nima?**
- A. ishlab chiqarish va xo'jalik yuritish jarayonlari,
  - B. ishlab chiqarish uskunalarini ekspluatatsiya qilish
  - C. turli miqyosdagi mehnat kooperatsiyasi
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
- 18. Boshqaruv obyektini nimaga qiyoslash mumkin?**
- A. Orkestr
  - B. Drijor
  - C. Kompazitor
  - D. Rejissor
- 19. Boshqaruv faoliyati nima?**
- A. Boshqaruvchi shaxs yoki organ tomonidan boshqaruv amallarini bevosita va bilvosita komandalar (buyruq, tavsiya va ko'rsatmalar) shaklida ishlab chiqish va amalga oshirishdir
  - B. Boshqaruv ob'ektlari va sub'ektlari orasidagi aloqa, jumladan, ularning ichki tashkil qilinishi qanchalik mustahkam bo'lsa, bir xil sharoitlarda ishlab chiqarish hamda boshqaruv tizimining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi
  - C. To'g'ri javob yo'q
  - D. Boshqaruvni amalga oshirish shart- sharoitlari
- 20. Ishlab chiqarishning, jumladan, boshqaruv foliyatining o'zining samaradorligini oshirishda, ishlab chiqarishning alohida elementlari va bo'g'inlari o'rtasida yuzaga keluvchi qanday munosabatlari muhim o'rin egallaydi?**
- A. Boshqaruv
  - B. Tashqi iqtisodiy aloqalar
  - C. Raqobat
  - D. Foyda

- 21.... ishlab chiqarish samaradorligiga erishish va korxonaning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.**
- A. Boshqaruv tizimi
  - B. Boshqaruv munosabatlari
  - C. Boshqarish tamoyillari
  - D. Prinsiplilik
- 22. Bugungi bozor munosabatlari sharoitida boshqaruv tizimi birinchi o'rinda nimlarga ko'maklashishi zarur?**
- A. korxonaning barqarorligini ta'minlashi
  - B. xo'jalik tavakkalchiligini kamaytirishi
  - C. sifatli va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
- 23. Korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun eng avvalo nima qilish kerak?**
- A. Boshqarish maqsadlarini belgilash
  - B. Boshqarish vazifalarini belgilash
  - C. Boshqaruv maqsadi va vazifalariga erishish usullarini aniqlash
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
- 24. Korxonani boshqarish maqsadlarining nechta turi mavjud?**
- A. 4 ta
  - B. 5 ta
  - C. 3 ta
  - D. 6 ta
- 25. Korxonaning boshqaruv maqsadlaridan qaysi turi ko'ra xususiy va umumiyga bo'linadi?**
- A. Boshqaruv obyektiga ko'ra
  - B. Amalga oshirish muddatiga ko'ra
  - C. Ahamiyat darajasiga ko'ra
  - D. Natijaga erishish darajasiga ko'ra
- 26. Natijaga erishish darajasiga ko'ra boshqaruv maqsadi qanday turlarga bo'linadi?**
- A. Yakuniy va oraliq
  - B. Xususiy va umumiy
  - C. Strategik va taktik
  - D. Joriy va istiqbolli
- 27. Boshqaruv qarori – bu nima?**
- A. Boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo'g'indir
  - B. Boshqaruvning tashkiliy asosi
  - C. Boshqaruv obyekti va subyekti orasidagi munosabat
  - D. Barcha javoblar to'g'ri
- 28. Zamonaviy fan va menejment amaliyoti korxonalarni boshqarishning nechta tamoyillarini eng asosiylari sifatida qabul qiladi?**
- A. 8 ta

- B. 7 ta
- C. 5 ta
- D. 10 ta

**29. Zamonaviy fan va menejment amaliyoti korxonalarni boshqarishning quyidagi tamoyillarini eng asosiylari sifatida qabul qiladi. Qaysi qatorda ular to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. Ilmiylik, tizimlilik va komplekslik, yakka boshqaruv va kollegialilik, tartib va adolat
- B. Xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, tejamkorlik va samaradorlik;
- C. Tashabbuskorlik va korporativ ruhiyat, vakolat va majburiyat
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**30. Amaldagi tasnifiga asosan boshqaruvni qanday funksiyalarga ajratish mumkin?**

- A. Rejalashtirish va istiqbolni belgilash
- B. Tartibga solish, tashkillashtirish va nazorat
- C. Hisobga olish va tahlil
- D. Nazorat qilish, bashorat qilish

**31. Optimallik – bu ... .Nuqtalar o'rnini to'ldiring.**

- A. Tuzilma bo'linmalari o'rtasida eng kam boshqaruv bo'g'inlariga ega bo'lgan holda o'zaro aloqalarni ratsional tarzda o'rnatishdir. Shu sababli ko'pbog'inlilikni qisqartirish boshqaruv tizimini takomillashtirish oldiga qo'yiluvchiasosiy talablardan biri hisoblanadi.
- B. Barcha funksional bo'linmalarining, zarur hollardaishlab chiqarish bo'linmalarining, boshqaruv qarorlari o'z vaqtida va sifatlibajarilishini ta'minlash uchun o'zaro aloqalar aniqlik bilan olib borilishi.
- C. Axborotlarni o'z vaqtida olish va boshqaruv qarorlarinibajaruvchilarga va bajarish joylariga o'z vaqtida etkazishni ta'minlaydi. Ishonchlilik va tezkorlik joriy va istiqboldagi boshqaruv tizimining samaradorligida muhim turtkihisoblanadi.
- D. Asosan boshqaruv tizimida maksimal samaraga erishganholda boshqaruv apparati va uning xarajatlarini kamaytirishga, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga erishishdir

**32. Tejamkorlik nima?**

- A. Tuzilma bo'linmalari o'rtasida eng kam boshqaruv bo'g'inlariga ega bo'lgan holda o'zaro aloqalarni ratsional tarzda o'rnatishdir. Shu sababli ko'pbog'inlilikni qisqartirish boshqaruv tizimini takomillashtirish oldiga qo'yiluvchiasosiy talablardan biri hisoblanadi.
- B. Barcha funksional bo'linmalarining, zarur hollardaishlab chiqarish bo'linmalarining, boshqaruv qarorlari o'z vaqtida va sifatlibajarilishini ta'minlash uchun o'zaro aloqalar aniqlik bilan olib borilishi.
- C. Axborotlarni o'z vaqtida olish va boshqaruv qarorlarini bajaruvchilarga va bajarish joylariga o'z vaqtida etkazishni ta'minlaydi. Ishonchlilikva tezkorlik joriy va istiqboldagi boshqaruv tizimining samaradorligida muhim turtkihisoblanadi.

D. Asosan boshqaruv tizimida maksimal samaraga erishganholda boshqaruv apparati va uning xarajatlarini kamaytirishga, ya'ni ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga erishishdir

**33. Zamonaviy texnika vositalari va yangi usullardan tashqari korxonalar boshqarishda ishlab chiqarish jamoalarida zarur bo'lgan nimani shakllantirish ham katta ahamiyatga ega?**

- A. ijtimoiy-psixologik muhitni
- B. Mablag'ni ko'paytirish
- C. Tabiiy muhitni
- D. A va B javoblar to'g'ri

**34. Boshqaruvning funksional tuzilmasining kamchiliklari nimada?**

- A. Yakkahokimlik tamoyilining buzilishi
- B. Kelishilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish va bajarish hamda ularning kompleksligini ta'minlash qiyinligi
- C. Boshqaruvning yuqori pog'onalari uchun rahbar tanlashning murakkabligi
- D. No'to'g'ri javob yo'q

**35. Boshqaruv tizimi nimalardan iborat bo'ladi?**

- A. Boshqaruvning maqsad va vazifalarini belgilash,
- B. Boshqaruvning optimal tashkiliy -strukturasini yaratish
- C. Xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, axborot bilan ta'minlash, axborotga texnikishlov berish vositalari, tahlil, boshqaruv qarorlarini bajarish ustidan nazorat
- D. Boshqaruv tamoyillari, maqsad va vazifalari

### Mavzuga oid "Ha" yoki "Yo'q" texnologiyasi:

T/R	Mulohazalar	javob
1	Boshqaruv qarori – boshqaruv faoliyati texnologiyasidagi muhim bo'g'indir	
2	Tamoyil – maxsus kategoriya bo'lib, alohida shaxs yoki jamoa qaror qabul qilishda unga tayanmaydi.	
3	Tamoyil faqat insongagina xosdir, mashinalar va jonivorlar biron-bir tamoyilga ega bo'lmaydi.	
4	Tizimlilik va komplekslilik tamoyili ilmiylik tamoyilining davomi bo'lish bilan birga, o'zining mustaqil ahamiyatiga ham ega, u boshqarilayotgan tizimning vertical va gorizontal yo'nalishlari bo'yicha barcha xususiyatlarini qamrab olishni ko'zda tutadi.	
5	Yakka boshqaruv har bir xo'jalik rahbari o'z vakolati doirasidagi masalalarni hal qilishda qonun tomonidan berilgan huquqlarga asosan bir o'zi (yakka tarzda) qaror qabul qilishini hamda korxonada faoliyati uchun shaxsan javobgarligini anglatmaydi.	

6	Xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tamoyili mehnat unumdorligini oshirishda muhim turtki hisoblanadi va boshqaruv tizimining samaradorligini aks ettiradi.
7	Tashkiliy tuzilma deganda korxonada boshqaruvi funksiyalarini bajaruvchi turli xil bo'lim, xizmat va bo'linmalar tarkibi, o'zaro munosabatlari va bir-biriga bo'ysunishini tushunish shart emas.
8	Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi korxonaning ishlab chiqarish tuzilmasi bilan aloqada va ko'p jihatdan unga bog'liq bo'ladi.
9	Chiziqli tuzilma boshqaruv tuzilmasining eng kam tarqalgan turi bo'lib, unga ko'ra boshqaruvning har bir bo'g'ini o'zidan yuqori turuvchi faqat bitta boshqarmaga ega bo'ladi va barcha masalalar bitta aloqa kanali orqali hal etiladi.
10	Boshqaruvning funksional tuzilmasi uchun boshqaruv va obyekt funksiyalari bo'yicha boshqaruv yacheykalari yaratish tavsiflidir
11	Boshqaruvning matristali tuzilmalari turli xil bo'lib, ularning barchasi bitta tamoyilda – ishlab chiqarishni vertikal va gorizontal boshqarishda boshqaruv funksiyalarini tashkiliy tuzilmalar o'rtasida qayta taqsimlash asosida yaratilmagan
12	Boshqaruv funksiyalari obyektiv jihatdan zarur va albatta qaytariluvchi xatti-harakatlar majmuasi bo'lib, mazmuni va yo'nalish maqsadlarining bir xilligi tufayli birlashib turadi.
13	Tashkillashtirish – kuch-quvvat va vositalarni ishlab chiqarish dasturini minimal xarajatlar asosida va bu xarajatlarning yuqori samaradorligi orqali amalga oshirishga yo'naltirish, amaldagi tashkilotchilik tizimini yangi yutuqlarga erishish va yangi vazifalarni bajarishga yo'naltirish.
14	Hisobga olish – joriy ko'rsatkichlarning belgilangan (dasturiy) vazifa(norma)larga mos kelish darajasini aniqlash.

### **Mavzu: KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BASHORAT QILISH**

Rejalashtirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxonada faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalaydi.

Rejalashtirish korxonada tomonidan bajariluvchi vazifalar muayyanlashtirilgan rejalarda o'z aksini topadi. Bozor iqtisodiyotida reja "yot unsur" yoki "yuqoridan" keluvchi buyruq sifatida qabul qilinishi sababli, hozirgi xo'jalik yuritish faoliyatida indikativ reja va prognoz deb nomlanuvchi, lekin mohiyatiga ko'ra rejalashtirishning barcha hollarda obyektiv zaruriyatini tasdiqlovchi tushunchalardan foydalaniladi. Demak, rejalashtirish, jumladan, indikativ reja va

prognoz – bu, korxonalarining xo‘jalik faoliyati uchun mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish uchun barcha omillardan foydalanish va tayyorgarlikning o‘z vaqtida bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan qulay sharoitlarni yaratishdir.

Korxonalar faoliyati va iqtisodiyotda rejalashtirishdan tashqari bashorat qilish ham katta rol o‘ynaydi. Bashorat qilish xo‘jalik faoliyati yurituvchi subyektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni ilmiy asoslangan holda avvaldan ko‘ra bilishini ifodalaydi.

Bashorat qilish rejalashtirish tavsifida o‘z aksini topadi: ishlab chiqarish va korxonada iqtisodiy hayotining boshqa jihatlarini strategik rejalashtirish - o‘rta va uzoq muddatli bashoratlar asosida hamda joriy rejalashtirish - qisqa muddatli bashoratlar asosida ishlab chiqiladi.

Bashorat – bu, korxonada, obyekt yoki hodisaning kelajakdagi ahvoli va ularni amalga oshirish variantlari va muddati to‘g‘risidagi ilmiy jihatdan asoslangan mulohazadir. Bashoratlarni ishlab chiqish jarayoni bashorat qilish, ya'ni kelajakni hozirgi paytdan kelib chiqqan holda oldindan ko‘ra bilish deb ataladi.

Rejalashtirish – qaror qabul qilishning uzluksiz bir jarayoni bo‘lib, bu jarayon davomida korxonada faoliyati va rivojlanishining maqsad va vazifalari atrofida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni inobatga olgan holda vaqt bo‘yicha aniqlanadi va belgilanadi hamda ularni amalga oshirish uchun resurslar aniqlanadi. Mazmuniga ko‘ra, rejalashtirish texnik-iqtisodiy va tezkor-ishlab chiqarish turlariga bo‘linadi.

Texnik-iqtisodiy rejalashtirish korxonada faoliyatining barcha (iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va hokazo) jihatlarini qamrab oluvchi rejalashtirish turi bo‘lib, asosan bir yilga mo‘ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasi shaklida amalga oshiriladi.

Tezkor-ishlab chiqarish rejalashtirish texnik-iqtisodiy rejalashtirishning davomi bo‘lib, korxonada faoliyati yillik rejasini yanada qisqaroq muddatga - sutka, o‘n kunlik, oyga bo‘lib muayyanlashtirish bilan tavsiflanadi.

Kalendar rejalashtirishda korxonada yillik rejasida va birinchi o‘rinda ishlab chiqarish dasturi(mahsulot tayyorlash rejasi)ni o‘n kunlik, hafta, kun va smena bo‘yicha aniqlashtirish hamda bu ko‘rsatkichlarni bajaruvchilarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Dispecherlashtirish oylik, o‘n kunlik, kunlik sutka-smenalik rejalarni bajarishni tezkor boshqarishda ifodalanadi.

Strategik rejalashtirish xo‘jalik yuritishning bozor tizimidagina vujudga kelib, 10-15 yillik davrni o‘z ichiga oladi. U korxonada rahbariyatining mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi hamda rivojlanishning ustivor yo‘nalishlarini topish va bozorda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan talabni inobatga olgan holda resurs bilan ta'minlashga qaratilgan.

Qisqa muddatli rejalashtirishda korxonada faoliyati va rivojlanishi 1-3 yilga mo‘ljallab rejalashtiriladi.

Bozor munosabatlarida raqobatchilikni kuchaytirish hamda xo‘jalik yuritish va hayotiy jarayonlar dinamikasi hisobiga joriy rejalashtirish amalga oshirilib, unga choraklarga bo‘lingan yillik rejalar asos qilib olinadi.

### **Tayanch iboralar:**

1. Reja;
2. Rejalashtirish;
3. Bashorat;
4. Bashorat qilish;
5. Texnik-iqtisodiy rejalashtirish;
6. Tezkor-ishlab chiqarish rejalashtirish;
7. Kalendar rejalashtirish;
8. Dispecherlashtirish;
9. Strategik rejalashtirish;
10. Qisqa muddatli rejalashtirish.

### **Nazorat savollari:**

1. Reja va bashorat orasida farq mavjudmi?
2. Korxonalar faoliyatida rejalashtirishning o'рни va ahamiyati qanday?
3. Bashorat qilish nima?
4. Rejalashtirishning qanday turlarini bilasiz?
5. Texnik-iqtisodiy rejalashtirish qanday amalga oshiriladi?
6. Korxonada strategik rejalashtirish qancha davrni o'z ichiga oladi?
7. Qisqa muddatli rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

### **Test savollari:**

1. **Rejalashtirishning to'g'ri ta'rifini belgilang.**
  - A. korxonada faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalovchi jarayon
  - B. xo'jalik yurituvchi sub'ektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni ilmiy asoslangan holda avvaldan ko'ra bilishini ifodalaydigan jarayon
  - C. o'rta va uzoq muddatli bashoratlar
  - D. qisqa muddatli bashoratlar
2. **Bashoratlashtirishning to'g'ri ta'rifini belgilang.**
  - A. xo'jalik yurituvchi sub'ektning istiqbolda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni ilmiy asoslangan holda avvaldan ko'ra bilishini ifodalaydigan jarayon
  - B. korxonada faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalovchi jarayon
  - C. o'rta va uzoq muddatli bashoratlar
  - D. qisqa muddatli bashoratlar
3. **Strategik rejalashtirish..... asosida ishlab chiqiladi.**
  - A. o'rta va uzoq muddatli bashoratlar
  - B. qisqa muddatli bashoratlar
  - C. asosiy vositalar
  - D. aylanma mablag'lar
4. **Joriy rejalashtirish....asosida ishlab chiqiladi.**
  - A. qisqa muddatli bashoratlar
  - B. o'rta va uzoq muddatli bashoratlar
  - C. asosiy vositalar
  - D. aylanma mablag'lar
5. **Rejalashtirishning usullarini belgilang:**



- A. Balans, normativ, iqtisodiy-matematik, statistik
  - B. Analiz. Sintez
  - C. Moddiy, ma'naviy, axloqiy
  - D. Normativ, sintez
- 6. Strategik rejalashtirishning muddatini ko'rsating?**
- A. 10-15 yil
  - B. 3-5 yil
  - C. 1-3 yil
  - D. Choraklarga bo'lingan yillik reja
- 7. Uzoq muddatli rejalashtirishning muddatini ko'rsating**
- A. 3-5 yil
  - B. 10-15 yil
  - C. 1-3 yil
  - D. Choraklarga bo'lingan yillik reja
- 8. Qisqa muddatli rejalashtirishning muddatini ko'rsating:**
- A. 1-3 yil
  - B. 10-15 yil
  - C. 3-5 yil
  - D. Choraklarga bo'lingan yillik reja
- 9. Joriy rejalashtirishning muddatini ko'rsating:**
- A. Choraklarga bo'lingan yillik reja
  - B. 10-15 yil
  - C. 3-5 yil
  - D. 1-3 yil
- 10.... bu, korxonada, obyekt yoki hodisaning kelajakdagi ahvoli va ularni amalga oshirish variantlari va muddati to'g'risidagi ilmiy jihatdan asoslangan mulohazadir. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.**
- A. Reja
  - B. Bashorat
  - C. Strategiya
  - D. Rejalashtirish
- 11.... korxonada faoliyatining barcha (iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va hokazo) jihatlarini qamrab oluvchi rejalashtirish turi bo'lib, asosan bir yilga mo'ljallangan iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasi shaklida amalga oshiriladi. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.**
- A. Qisqa muddatli rejalashtirish
  - B. Joriy rejalashtirish
  - C. Texnik-iqtisodiy rejalashtirish
  - D. Strategik rejalashtirish
- 12.... da korxonada faoliyati va rivojlanishi 1-3 yilga mo'ljallab rejalashtiriladi. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.**
- A. Qisqa muddatli rejalashtirish
  - B. Taktik rejalashtirish
  - C. Calendar rejalashtirish
  - D. Joriy rejalashtirish

**13. Biznes-rejani tayyorlashda kim qatnashishi shart?**

- A. Korxonaning rahbari
- B. Investor
- C. Bankir
- D. Raqib

**14. Biznes rejaning “boshqaruv” bo‘limida...**

- A. mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi va tashqi muhit bilan munosabatlar
- B. tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxonaga mahsulotlariga jalb etish yo‘llari, bahoni shakllantirish va h.k.
- C. tovarlarni tarqatish tizimi, reklama, sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish va h.k.
- D. potensial xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o‘z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko‘rsatadi

**15. Biznes rejaning “Ishlab chiqarish rejasi” bo‘limida...**

- A. potensial xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o‘z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko‘rsatadi
- B. mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi va tashqi muhit bilan munosabatlar
- C. tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxonaga mahsulotlariga jalb etish yo‘llari, bahoni shakllantirish va h.k.
- D. tovarlarni tarqatish tizimi, reklama, sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish va h.k.

**16. Biznes rejaning “bozor tadqiqoti va tahlili” bo‘limida...**

- A. tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxonaga mahsulotlariga jalb etish yo‘llari, bahoni shakllantirish va h.k.
- B. mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi va tashqi muhit bilan munosabatlar
- C. tovarlarni tarqatish tizimi, reklama, sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish va h.k.
- D. potensial xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o‘z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko‘rsatadi

**17. Biznes rejaning “Marketing xarakatlari rejasi” bo‘limida...**

- A. tovarlarni tarqatish tizimi, reklama, sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish va h.k.
- B. mulkchilik shakli, xodimlarning malakasi va tashqi muhit bilan munosabatlar
- C. tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxonaga mahsulotlariga jalb etish yo‘llari, bahoni shakllantirish va h.k.
- D. potensial xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o‘z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko‘rsatadi

**18. Biznes rejaning “tanlangan biznes konsepsiyasi” bo‘limida...**

- A. Raqobatbardoshlik, mablag‘larga ehtiyoj, jalb qilishning asoslanganligi ko‘rsatiladi

- B. Korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakldi, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va xarajatlar tahlili aks ettiriladi
- C. Tanlangan tovar bozoridagi ahvol, boshqa bozorlarga chiqish imkoniyatlari, bozorga ta'sir etuvchi omillar aks etiriladi
- D. Savdo xajmining bashorati, daromad va xarajatlar balansi, foyda va zararlar rejasi ko'rsatiladi

**19. Biznes rejaning "Hozirgi paytdagi holat" bo'limida...**

- A. Tanlangan tovar bozoridagi ahvol, boshqa bozorlarga chiqish imkoniyatlari, bozorga ta'sir etuvchi omillar aks etiriladi
- B. Raqobatbardoshlik, mablag'larga ehtiyoj, jalb qilishning asoslanganligi ko'rsatiladi
- C. Korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakldi, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va xarajatlar tahlili aks ettiriladi
- D. Savdo xajmining bashorati, daromad va xarajatlar balansi, foyda va zararlar rejasi ko'rsatiladi

**Biznes rejaning "Korxonada va uning mahsulotlari tavsifnomasi" bo'limida...**

- A. Korxonaning joylashgan manzili, bozorga chiqish shakldi, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va xarajatlar tahlili aks ettiriladi
- B. Raqobatbardoshlik, mablag'larga ehtiyoj, jalb qilishning asoslanganligi ko'rsatiladi
- C. Tanlangan tovar bozoridagi ahvol, boshqa bozorlarga chiqish imkoniyatlari, bozorga ta'sir etuvchi omillar aks etiriladi
- D. Savdo xajmining bashorati, daromad va xarajatlar balansi, foyda va zararlar rejasi ko'rsatiladi

**Mavzuga oid "Ha" yoki "Yo'q" texnologiyasi:**

1	Rejalashtirish tartibga soluvchi jarayon sifatida korxonalar faoliyatini yaqin va uzoq istiqbol sari ilgari surish, asoslab berish, muayyanlashtirish va izohlab berishni ifodalaydi.	
2	Korxonalar faoliyati va iqtisodiyotda rejalashtirishdan tashqari bashorat qilish ham katta rol o'ynamaydi.	
3	Bashoratning maqsadi bozorga ta'sir qiluvchi omillarni, shu bilan birga, xo'jalikning umumiy ahvoli, tuzilmaviy siljishlar, investitsion faollik, fan-texnika taraqqiyotining iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarga ta'sir ko'rsatishi, an'anaviy mahsulotlardan tashqari korxonaning barqarorligi va raqobatbardoshligiga olib keluvchi «pioner» (yangi) mahsulot ishlab chiqarish istiqbolida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarini belgilashdadir.	
4	Rejalashtirish uslubiyati bu iqtisodiyotni boshqarishning turli bo'g'inlarida, jumladan, korxonalar boshqarishda rejalarni ishlab chiqish usullari majmuasidir.	
5	Balans usuli normativ usuli bilan birgalikda qo'llanilmaydi.	
6	Moslashuvchanlik rejalashtirishning bozor sharoitlaridagi muhim tamoyili hisoblanadi.	
7	Tadbirkorlik korxonalar xo'jalik yuritish faoliyatining uzluksiz qismi bo'lib, foyda (daromad) olish va uni ko'paytirishga qaratilgan bo'ladi.	
8	Moliyaviy reja biznesrejaning yakunlovchi bo'limi bo'lib, korxonalar faoliyatining natijalarini tavsiflamaydi.	
9	Boshqa hollarda biznesreja yangi korxonalar tashkil qilish yoki biron-bir tijorat loyihasini amalga oshirish uchun mo'ljallanayotgan asoslangan xatti-harakatlarni o'z ichiga oluvchi hujjat hisoblanadi.	
10	“Tavakalchilik va suftalashni baholash” bo'limi uch qismga bo'linadi.	
11	Korxonalar, uning mahsulot va xizmatlari tavsifnomasi bo'limida korxonalar joylashgan manzili, bozorga chiqish shakli, bozordagi ulushi, asosiy raqobatchilari va ularning kuchli tomonlari, texnologiya darajasi va xarajatlar tahlili aks ettiriladi.	
12	“Bozor tadqiqoti va tahlili” bo'limida tanlangan bozor asoslab beriladi, xaridorlarni korxonalar mahsulotlariga jalb etuvchi raqobatchilik usullari hamda bozorda bahoni shakllantirish va hokozolar ko'rib chiqiladi.	
13	Rejalashtirishda “korxonalar-muhit-holat” munosabatlari asosiy o'ringa ega emas.	
14	Marketing rejasining asosiy vazifasi korxonalar bozordagi imkoniyatlariga baho berishdadir.	
15	“Ishlab chiqarish rejasini” potentsial xaridorlarga kerakli mahsulotlar hajmini o'z vaqtida ishlab chiqarish imkoniyatining mavjudligini ko'rsatmaydi.	

## **Mavzu: ISHLAB CHIQUARISHNING IQTISODIY VA IJTIMOYIY SAMARADORLIGI**

**Ishlab chiqarish samaradorligi** har bir korxonada faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi.

**Samara** – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonada faoliyatining ijobiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda ishlab chiqarish samarasini, pul shaklida esa iqtisodiy samarani tavsiflaydi.

**Samaradorlik**, avvalo, korxonada faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U “samara” toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

**Iqtisodiy samaradorlik** samaradorlikka qaraganda bir muncha tor ma'noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan xarajatlari (ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik** ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o'zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o'sishi, aholi sog'lig'ining yaxshilanishi va umr ko'rishining uzayishida aks ettiriladi.

Xo'jalik samaradorligini baholash, korxonada foydalaniladigan resurs turlari bo'yicha amalga oshirilishi va miqdor jihatidan o'lchanishi mumkin. Masalan, ishchi kuchidan foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va mahsulotning mehnat sig'imi ko'rsatkichlari yordamida quyidagi formula asosida baholash mumkin:

$$PT = \frac{Q}{Ch}$$

Bu yerda:

PT - mehnat unumdorligi;

Q - mahsulot hajmi qiymat ko'rinishida;

Ch - ishlovchilar (ishchilar) soni.

Mahsulotning mehnat sig'imi mehnat unumdorligiga teskari kattalik bo'lib, sarflangan mehnat miqdorining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$T = \frac{Q}{Q}$$

**Mehnat qurollari**(asosiy fondlar)dan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig'imi va fond qaytimi ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi. Bunda fond qaytimi korxonada asosiy fondlarining bir birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatadi, fond sig'imi esa fond qaytimiga teskari kattalik bo'lib, yangi asosiy fondlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan kapital qo'yilmalarni aniqlash vazifasini bajaradi.

Fond qaytimi ( $f_o$ ) va fond sig'imini ( $f_{ye}$ ) aniqlash formulasi quyidagicha:

$$f_o = \frac{Q}{\Phi}$$

Bu yerda:

Q - mahsulot hajmi, qiymat pul ko'rinishida;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati.

$$f_e = \frac{\Phi}{Q}$$

Mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi, mahsulotlarning material sig'imi yordamida sarflangan xom ashyo, material, yoqilg'i, energiya va mehnat predmetlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi. Uning formulasi quyidagicha:

$$m = \frac{M}{Q}$$

Bu yerda:

m - mahsulotlarning material sig'imi;

M - mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan moddiy xarajatlarning umumiy miqdori pul ko'rinishida;

Q - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, qiymat ko'rinishida.

**To'lov qobiliyati koeffitsiyenti** ( $K_{pl}$ ) korxonaning debitorlar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilish hamda tayyor mahsulot va boshqa moddiy vositalarini sotishning qulay sharoitlarda sotish orqali baholanadigan to'liq imkoniyatlarini ko'rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{pl} = \frac{A_2 - \Pi_{o3}}{\Pi_2 - D_{zk}}$$

Bu yerda:

$A_2$  – aylanma aktivlar (ishlab chiqarish zahiralari, tayyor mahsulot, pul mablag'lari, debitorlik qarzlari va hokazolar);

$\Pi_2$  – majburiyatlar (qisqa muddatli qarzlilar, qisqa muddatli kreditlar, byudjet oldidagi qarzlilar, kreditorlik qarzlari va hokazo);

$P_{dz}$  – muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlari;

$D_{zk}$  – uzoq muddatli qarz va kreditlar.

**Xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti** ( $K_{ss}$ ) ularning shakllanish manbalarini inobatga olgan holda, pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlaydi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{cc} = \frac{\Pi_1}{\Pi_2 - \mathcal{D}_{3K}}$$

Bu yerda:

$\Pi_1$  – xususiy mablag'lar manbalari (Nizom jamg'armasi, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda va hokazo).

**Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti** ( $K_{fn}$ ) korxonada moliyaviy mustaqilligining kamayishi (ko'payishi), kelajakda moliyaviy qiyinchiliklarga uchrash xavfining kuchayishi (pasayishi) haqida ma'lumot beradi hamda korxonada o'z majburiyatlari oldida javob berishining kafolatlarini belgilab beradi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$K_{\phi n} = \frac{\Pi_1}{IB}$$

Bu yerda:

IB - korxonada balansida aktivi yoki passivining yakuni.

#### **Tayanch iboralar:**

1. Ishlab chiqarish samaradorligi;
2. Samara;
3. Samaradorlik;
4. Iqtisodiy samaradorlik;
5. Ijtmoiy-iqtisodiy samaradorlik;
6. ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi;
7. To'lov qobiliyati koeffitsiyenti;
8. Xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti;
9. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
10. Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti.

#### **Nazorat savollari:**

1. Samara va samaradorlik tushunchalarini izohlab bering.
2. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati nimada va u korxonada umumiy faoliyati samaradorligidan qanday farq qiladi?
3. Samaradorlikning qanday turlarini bilasiz?
4. Korxonada faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'llari va omillarini sanab bering?
5. Ishchi kuchidan foydalanish samaradorligining mazmuni nimadan iborat?
6. Xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyentining korxonadagi o'rni nimadan iborat?
7. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentining mohiyati nimadan iborat?

## Test savollari:

1. ... - xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat xarajatlari hamda olingan natijalar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Nuqtalar o'rniga mos atamani qo'ying.
  - A. Ishlab chiqarish samaradorligi
  - B. Samaradorlik
  - C. Ijtmoy-iqtisodiy samaradorlik
  - D. Iqtisodiy samaradorlik
2. ... – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxonada faoliyatining ijobiy natijalaridir. Nuqtalar o'rniga mos atamani qo'ying.
  - A. Samaradorlik
  - B. Samara
  - C. Iqtisodiy samaradorlik
  - D. Ishlab chiqarish samaradorligi
3. Ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni yo'qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Yuqoridagi ta'rif qanday samaradorlik haqida?
  - A. Iqtisodiy samaradorlik
  - B. Ijtimoiy samaradorlik
  - C. Ishlab chiqarish samaradorligi
  - D. Ijtmoy-iqtisodiy samaradorlik
4. Mehnat unumdorligi formulasini belgilang?
  - A.  $PT = \frac{Q}{R}$
  - B.  $T = \frac{R}{Q}$
  - C.  $fo = \frac{Q}{F}$
  - D.  $Fyo = \frac{Q}{F}$
5. Fond qaytishi formulasini ko'rsating?



- A.  $f_o = \frac{Q}{F}$
- B.  $PT = \frac{Q}{R}$
- C.  $T = \frac{R}{Q}$
- D.  $Fy_o = \frac{F}{Q}$

6. Fond sig'imi formulasini belgilang?

- A.  $fy_o = \frac{F}{Q}$
- B.  $PT = \frac{Q}{R}$
- C.  $T = \frac{R}{Q}$
- D.  $f_o = \frac{Q}{F}$

7. Mehnat sig'imi formulasini belgilang?

- A.  $T = \frac{R}{Q}$
- B.  $PT = \frac{Q}{R}$
- C.  $f_o = \frac{F}{Q}$
- D.  $Fy_o = \frac{F}{Q}$

8. Mahsulotlarning material sig'imi formulasini belgilang?

- A.  $m = \frac{M}{Q}$

$$\text{B. } R = \frac{P}{A} \times 100$$

$$\text{C. } K_{pl} = \frac{A_2 - Pd_3}{P_2 - D_3k}$$

$$\text{D. } K_{ss} = \frac{P_1}{P_2 - D_3k}$$

9. To'lov qobiliyati koeffitsiyenti formulasini belgilang?

$$A_2 - Pd_3$$

$$\text{A. } K_{pl} = \frac{P_1}{P_2 - D_3k}$$

$$\text{B. } m = \frac{M}{Q}$$

$$\text{C. } R = \frac{P}{A} \times 100$$

$$\text{D. } K_{ss} = \frac{P_1}{P_2 - D_3k}$$

10. Xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti formulasini belgilang?

$$P_1$$

$$\text{A. } K_{ss} = \frac{P_1}{P_2 - D_3k}$$

$$\text{B. } m = \frac{M}{Q}$$

$$\text{C. } R = \frac{P}{A} \times 100$$

D. To'g'ri javob yo'q

11. Rentabellik formulasini belgilang?

$$P$$

$$\text{A. } R = \frac{P}{A} \times 100$$

$$\text{B. } m = \frac{M}{Q}$$

A2 – Pd3

C.  $K_{pl} = \frac{\text{-----}}{\text{-----}}$

P2-D3k

P1

D.  $K_{ss} = \frac{\text{-----}}{\text{-----}}$

P2-Dzk

**12. Ishlab chiqarish samaradorligi xo'jalik yuritishning qanday ko'rsatkichlarini ifodalaydi?**

A. iqtisodiy ko'rsatkichlar

B. samaradorlik ko'rsatkichi

C. sifat va miqdor ko'rsatkichlari

D. yuqoridagilarning barchasini

**13. Samara korxonasi faoliyatining qanday natijalarini ifodalaydi?**

A. ijobiy natijalari

~~B.~~ intensiv o'sish natijasi

C. qo'shimcha faoliyat natijasi

D. ekstensiv o'sish natijasi

**14. Samaradorlikning asosiy ko'rsatkichi nima?**

A. daromad

B. korxonaning rezerv fondi

C. foyda

D. ustav fondi

**15. Hozirgi kunda samaradorlikka erishishda xorijiy kompaniyalar nimaga alohida e'tibor bermoqda?**

A. mahsulotni yangilashga

B. texnika va texnologiyaga

C. mahsulot sifatini oshirish va reklama qilishga

D. mahsulot tashqi ko'rinishiga

**16. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishda pul shaklda qanday resurslar mavjud?**

A. bino inshoot, mashina, tayyor mahsulot

B. mehnat haqi fondi, asosiy kapital, aylanma kapital, muomala fondlari, pul mablag'lari

C. korxonaning naqd va naqdsiz pul mablag'lari

D. to'g'ri javob yo'q

**17. Mehnat unumdorligi qanday ko'rsatkichlar yordamida hisoblanadi?**

A. mahsulot hajmi, ishchilar soni

B. mehnat qurollari soni, mahsulot sifat ko'rsatkichi

C. talab hajmi, mahsulot soni

D. taklif hajmi, mahsulot soni

**18. Mahsulotning material sig'imi qanday aniqlanadi?**

A. ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining moddiy xarajatlarning umumiy hajmiga nisbati orqali

- B. moddiy xarajatlarning umumiy hajmining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali
- C. fond sig'iminin fond hajmiga nisbati orqali
- D. fond hajminin fond sig'imiga nisbati orqali
- 19. Xususiy va qarzga olingan mablag'lar nisbati koeffitsiyenti nimani aniqlaydi?**
- A. muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlarini
- B. uzoq muddatli kreditorlik qarzlarini
- C. pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasini
- D. uzoq muddatli debitorlik qarzlarini
- 20. To'lov qobiliyati koeffitsiyenti qaysi ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi?**
- A. xususiy mablag'lar manbalari, uzoq muddatli aktivlar, aylanma mablag'lar
- B. aylanma aktivlar, majburiyatlar, muddati o'tib ketgan debitorlik qarzlarini, uzoq muddatli qarzlar
- C. uzoq muddatli aktivlar, aylanma aktivlar, kreditlar
- D. A va B javoblar to'g'ri
- 21. Samaradorlikni oshirishda mavjud ishlab chiqarish salohiyati omili nimani ifodalaydi?**
- A. asosiy va aylanma fondlar, ishchi kuchidan tejamkorlik asosida foydalanishni
- B. mablag'larni to'g'ri taqsimlashni
- C. ishlab chiqarishni avtomatlashtirishni
- D. mablag'lardan unumli foydalanishni
- 22. Boshqaruv samaradorligi nimalarni ifodalaydi?**
- A. ishlab chiqarish obykti va faoliyat unumdorligini
- B. boshqarish, rejalashtirish va iqtisodiy rag'batlantirish usul va shakllari
- C. boshqarish va faoliyatni rivojlantirish
- D. noto'g'ri javob yo'q
- 23. Xususiy aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti nimani ifodalaydi?**
- A. korxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini yuritish uchun zarur bo'lgan aylanma vositalar mavjudligini
- B. korxonada moliyaviy mustaqilligi darajasini
- C. xususiy mablag'lar manbalarini
- D. mablag'larni to'g'ri taqsimlashni
- 24. Fond sig'imi qaysi ko'rsatkichlar bilan hisoblanadi?**
- A. pul ko'rinishda mahsulot hajmi va asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati
- B. ishchilar soni va pul ko'rinishda mahsulot hajmi
- C. va asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymati va mehnat unumdorligi
- D. yuqoridagi barcha ko'rsatkichlar orqali
- 25. Mahsulotning material sig'imi mehnat unumdorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?**
- A. material sig'imi qanchalik yuqori bo'lsa mehnat unumdorligi shunchalik yuqori

- B. material sig'imi qanchalik past bo'lsa mehnat unumdorligi shunchalik yuqori  
 C. material sig'imi past yoki yuqori ekanligi ahamiyatsiz  
 D. to'g'ri javob yo'q

**Mavzuga oid “Ha” yoki “Yo’q” texnologiyasi:**


<b>№</b>	<b>Mulohazalar</b>	<b>javob</b>
1	Ishlab chiqarish samaradorligi har bir korxonada faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi.	
2	Iqtisodiy samaradorlik aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi farqni ifodalaydi.	
3	Samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatda erishish mumkin.	
4	Samaradorlik va sifatli mehnat korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlamaydi.	
5	Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda iste'molchilar talabini qondirishga yo'naltirilgan mahsulotni sotish va yuqori daromad olish muhim omildir.	
6	Mehnat unumdorligi ishchilar sonining mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.	
7	Fond qiymati mahsulot hajmining asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatlariga nisbati bilan aniqlanadi.	
8	Mehnat qurollaridan foydalanish samaradorligi mahsulotning fond sig'imi va fond qiymati ko'rsatkichlari yordamida aniqlanadi.	
9	Mahsulotning materiallar sig'imi qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi.	
10	Xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish asosida doimo foydani maksimallashtirish yoki xarajatlarni minimallashtirish yotadi.	


**Bir-biriga mos keledigan kataklarni belgilang:**

<b>№</b>	<b>Savollar</b>	<b>Javoblar</b>
1	Foydani maksimallashtirish	a) Ishlab chiqarilayotgan mahsulot, foyda va daromad hajmini oshirish
2	Fond sig'imi	b) Korxonada faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushuncha
3	Fond qaytimi	c) Qabul qilmaydigan qarorlarning xo'jalik yuritishda maqsadga muvofiqligini tavsiflaydi
4	Korxonada	d) Ishlab chiqarish samaradorligini, mehnat sharoitlarini aqliy va jismoniy mehnat o'rtasidagi

		farqni tavsiflaydi
5	Samaradorlik	e) Xo`jalik faoliyatining natijasini foyda shaklida ko`rsatadi
6	Iqtisodiy samaradorlik	f) Yangi asosiy qonunlarni tashkil qilish uchun zarur bo`lgan kapital qo`yilmalarni aniqlaydi
7	Reklama	g) Korxonaga asosiy fondlarining bir birligiga to`g`ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni anglatadi
8	Ijtimoiy – iqtisodiy samaradorlik	h) Xarajatlarni minimumga keltirib, eng yuqori darajada foydaga erishish
9	Samara	i) Sarflangan xomashyo material, yoqilg`i – energiya va mehnat elementlarining umumiy qiymatini mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi
10	Mehnat qurollari	j) Iste`molchilarni mahsulot bilan tanishtiradi va mahsulotni sotib olishga undaydi
11	To`lov qobiliyati koeffitsiyenti	k) Korxonaning yashovchanligi, ya`ni, korxonaga faoliyatining muntazam ravishda olib borilishi
12	Material sig`imi	l) Ishlab chiqarish, xizmatlar ko`rsatish faoliyatini olib boruvchi xo`jalik yurituvchi subyekt
13	Rentabellik	m)Korxonaning debitorlar bilan o`z vaqtida hisob kitob qilishida va tayyor mahsulotlarni sotishda qulay imkoniyatlarini belgilab beradi
14	Barqarorlik	n)...dan samarali foydalanish fond sig`imi va fond qaytimi ko`rsatkichlari yordamida aniqlanadi

**Mavzuga oid krossvord:**





### Savollar:

#### Bo`yiga:

1. Ishlab chiqarishga va samaradorlikni oshirishga ta`sir etuvchi tushuncha bu-...
2. Ishlab chiqarishga sarflanadigan xom ashyolar boshqacha nomi.
3. Samaradorlikka qisqa va uzoq muddatda erishish ... omili deyiladi.
4. Mahsulot ishlab chiqarish va sotishga sarflanadigan mablag` ... deyiladi.
5. Talab va taklif uchrashadigan mexanizm bu ...
6. Mehnat haqi fondi, asosiy kapital, aylanma kapital, muomala fondlari va pul mablag`lari pul shaklidagi ... ga kiradi.
7. ... kuchidan foydalanish samaradorligini mehnat unumdorligi va mahsulotning mehnat sig`imi ko`rsatkichlari yordamida aniqlash mumkin.

#### Eniga

1. Korxonada mahsulotni sotishda olib boradigan jarayonlardan biri.

2. korxonona faoliyatining ijobiy natijalari.
3. Korxonona faoliyatining ijobiy jihatlarini tavsiflovchi tushuncha.
4. Ishlab chiqarishning pirovard natijasi.
5. Boshqarish, rejalashtirish, iqtisodiy rag`batlantirish usul va shakllari nimada ifodalanadi.
6. Rejalarning balanslashtirilishi, ko`rsatkichlar tizimini optimal shakllantirish, rejalashtirilayotgan maqsadlar resurslar bilan ta`minlanishi nimada muhim ahamiyatga ega?

## **Mavzu: KORXONANING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATI**

**Asosiy fondlar** korxonona ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo`lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etada va o`zining natural-moddiy holatini yo`qotmaydi hamda o`z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o`tkazib beradi. Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o`tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to`plangan mablag`lar esa amortizatsiya ajratmalari deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko`ra, asosiy fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy fondlari o`z mohiyatiga ko`ra, korxonaning ishlab chiqarish potensialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ishlab chiqarish binolari va inshoatlari;
- uzatish qurilmalari;
- quvvat mashinalari va uskunalari;
- ishchi mashinalar va uskunalari;
- transport vositalari;
- o`lchov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;
- foydalanish muddati bir yildan kam bo`lmagan va qonunchilikda belgilab qo`yilgan qiymatlardagi asboblari va ishlab chiqarish inventari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo`lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi.

Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxonona asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo`lib, shu sababli o`z qiymatini tayyor mahsulotga o`tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxonona balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog`chasi va yaslilar, sport-sog`lomlashtirish va boshqa ob'ektlar kiritiladi.

Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud: **boshlang`ich qiymat bo`yicha** - asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan



xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan-ularni keltirish, o'rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat.

**Tiklanish qiymati bo'yicha** - asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunalari va hokazo) hozirgi paytdagi inflyasiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli ob'ektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko'rsatadi.

**Qoldiq qiymati bo'yicha** - asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy fondlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o'tkazilmagan qismidir.

Hozirgi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxonalar balansi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya'ni, boshlang'ich, belgilangan tartibda o'tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati **balans qiymati** deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashiladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonaning ishlab chiqarish quvvati kattaligini belgilaydi. U ishlab chiqarish dasturini asoslashda katta rol o'ynaydi hamda korxonaning belgilangan nomenklatura va sifatli mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha potensial imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Bundan kelib chiqadiki, **ishlab chiqarish quvvati** – bu, ma'lum bir vaqt davomida ilg'or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasidir. U qoidaga ko'ra, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmining natural ko'rinishda, ushbu korxonaning ixtisoslashganligi va mahsulotning alohida turlari o'rtasidagi o'zaro nisbatiga ko'ra aniqlanadi.

Korxonalar ishlab chiqarish quvvatining **boshlang'ich** (yil boshida), **yakuniy**(yil oxirida), **o'rtacha** yillik hamda **loyiha quvvati** turlari mavjud. Loyiha quvvati qurilish loyihasida ko'zda tutilgan bo'ladi. Qayta tiklash, kengaytirish va texnik jihatdan qayta qurollantirish davomida loyiha quvvati kattalashtirilishi mumkin. Shu sababli amaliyotda loyiha quvvati ko'pincha korxonaning amaldagi quvvati bilan solishtiriladi. Korxonaning amaldagi quvvati korxonalar ishlab chiqarish dasturini tayyorlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Tayanch iboralar:**

- 1. Asosiy fondlar;**
- 2. korxonaning ishlab chiqarish apparati,;**
- 3. ishlab chiqarish asosiy fondlari,**
- 4. korxonalar asosiy fondlari tarkibi;**
- 5. boshlang'ich qiymat;**
- 6. tiklanish qiymati;**
- 7. qoldiq qiymati;**

8. balans qiymati;
9. jismoniy eskirish;
10. ma'naviy eskirish;
11. Ishlab chiqarish quvvati.

**Nazorat savollari:**

1. Asosiy fondlar nima va ularning korxonada tutgan o'rnini qanday?
2. Asosiy fondlarning qanday turlarini mavjud?
3. Korxonada asosiy fondlari tarkibini tushuntirib bering.
4. Asosiy fondlarni baholashning qanday usullari mavjud?
5. Asosiy fondlarning boshlang'ich va balans qiymati o'rtasidagi tafovut qanday?
6. Jismoniy va ma'naviy eskirishning bir-biridan farqini izohlab bering.
7. Ishlab chiqarish quvvati nima va uni izohlab bering?

**Test savollari:**

1. **Iqtisodiy maqsadlarga ko'ra asosiy fondlar quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish
  - B. Aktiv va passiv
  - C. Bino va inshootlar
  - D. Ishchi mashinalar va uskunalar
2. **Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni qanday nomlanadi?**
  - A. amortizatsiya
  - B. Adaptatsiya
  - C. Avtarkiya
  - D. Innogursiya
3. **Ishlab chiqarish asosiy fondlari tarkibiga kirmaydiganini belgilang?**
  - A. Bolalar bog'chasi
  - B. Uzatish qurilmalari
  - C. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari
  - D. Ishchi mashinalar va uskunalar
4. **Noishlab chiqarish asosiy fondlari tarkibiga kiradiganini belgilang?**
  - A. Bolalar bog'chasi
  - B. Uzatish qurilmalari
  - C. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari
  - D. Ishchi mashinalar va uskunalar
5. **Asosiy ishlab chiqarish fondlari quyidagilarga bo'linadi:**
  - A. aktiv va passiv
  - B. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish
  - C. Uy-joy fondi, klub, oshxona
  - D. Bo'linmaydi
6. **Asosiy fondlarni baholashning usullarini belgilang?**
  - A. Boshlang'ich qiymat
  - B. Tiklanish qiymati
  - C. Qoldiq qiymat

- D. Barcha javoblar to'g'ri
- 7. Asosiy fondlarni boshlang'ich qiymat bo'yicha baholashning to'g'ri ta'rifini belgilang?**
- A. Asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan ularni keltirish, o'rnatilgan xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat
- B. Asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini hozirgi paytdagi inflyasiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash
- C. Asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baxolashdir
- D. Barcha javoblar to'g'ri
- 8. Asosiy fondlarni tiklanish qiymati bo'yicha baholashning to'g'ri ta'rifini belgilang?**
- A. Asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini hozirgi paytdagi inflyasiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash
- B. Asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan ularni keltirish, o'rnatilgan xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat
- C. Asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baxolashdir
- D. Barcha javoblar to'g'ri
- 9. Asosiy fondlarni qoldiq qiymati bo'yicha baholashning to'g'ri ta'rifini belgilang?**
- A. Asosiy fondlarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o'rtasidagi farq ko'rinishidagi baholashdir
- B. Asosiy fondlar yoki ularning biron-bir qismini hozirgi paytdagi inflyasiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash
- C. Asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo'lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan ularni keltirish, o'rnatilgan xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat
- D. Barcha javoblar to'g'ri
- 10. Jismoniy eskiishni hisoblaydigan formulani belgilang?**
- A.  $IF = \frac{T_F}{T_I} * 100$
- B.  $F_o = \frac{Q}{F}$

$$C. F_e = \frac{F}{Q}$$

$$D. m = \frac{M}{Q}$$

11. Ma'naviy eskirishni hisoblaydigan formulani belgilang?

$$A. IM = \frac{P-V}{P} * 100$$

$$B. F_o = \frac{Q}{F}$$

$$C. F_e = \frac{Q}{M}$$

$$D. m = \frac{Q}{M}$$

12. Amortizatsiya normasi formulasini belgilang?

$$A. Na = \frac{A}{P} * 100$$

$$B. F_o = \frac{Q}{F}$$

$$C. F_e = \frac{F}{Q}$$

$$D. m = \frac{M}{Q}$$

13. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan ekstensiv foydalanish koeffitsenti nimani aks ettiradi?

- A. Ulardan vaqt bo'yicha foydalanganlik darajasi
- B. Ulardan quvvat bo'yicha foydalanganlik darajasi
- C. Barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni
- D. Foydalanmaslikni

14. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan intensiv foydalanish koeffitsenti nimani aks ettiradi?

- A. Ulardan vaqt bo'yicha foydalanganlik darajasi
- B. Ulardan quvvat bo'yicha foydalanganlik darajasi
- C. Barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni
- D. Foydalanmaslikni

**15. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish koeffitsenti nimani aks ettiradi?**

- A. Barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni
- B. Ulardan quvvat bo'yicha foydalanganlik darajasi
- C. Ulardan vaqt bo'yicha foydalanganlik darajasi
- D. Foydalanmaslikni

**16. Asbob-uskunalardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti qaysi formula orqali aniqlanadi ?**

A.  $K_{eks} = \frac{t_{haq}}{MS}$

B.  $K_{sm} = \frac{t_{rej}}{KO}$

C.  $K_{int} = \frac{V_f}{V_p}$

D.  $F_k = \frac{V}{F_s}$

**17. Asbob-uskunalardan smenalik foydalanish koeffitsiyenti qaysi formula orqali aniqlanadi?**

A.  $K_{eks} = \frac{MS}{KO}$

B.  $K_{sm} = \frac{T_{haq}}{T_{rej}}$

C.  $K_{int} = \frac{V_f}{V_p}$

D.  $F_k = \frac{V}{F_s}$

**18. Fond qiymati qaysi formula orqali aniqlanadi?**

A.  $F_k = \frac{V}{F_s}$

B.  $K_{eks} = \frac{t_{haq}}{MS}$

C.  $K_{sm} = \frac{t_{rej}}{KO}$

$$D. K_{int} = \frac{V_f}{V_p}$$

**19. Korxonada ishlab chiqarish quvvatining qanday turlari mavjud?**

- A. Boshlang'ich, yakuniy, o'rtacha yillik, loyiha quvvati
- B. Intensiv, ekstensiv, marketing
- C. Ichki va tashqi
- D. Mavjud emas

**20. Ma'lum bir vaqt davomida ilg'or texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishning ilg'or sharoitlarida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlarning maksimal darajasi-bu?**

- A. ishlab chiqarish quvvati
- B. noishlab chiqarish quvvati
- C. balans quvvati
- D. tiklanish quvvati

**Mavzuga oid "Ha" yoki "Yo'q" texnologiyasi:**

T/R	MULOHAZALAR	
1	Asosiy fondlar korxonada ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo'lib ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etadi va o'zining natural-moddiy holatini yo'qotmaydi hamda o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o'tkazib beradi	
2	Noishlab chiqarish asosiy fondlari o'z mohiyatiga ko'ra korxonaning ishlab chiqarish potensialini tashkil qiladi	
3	Asosiy fondlar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o'tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to'plangan mablag'lar esa amortizatsiya ajratmalari deb ataladi	
4	Iqtisodiy maqsadlariga ko'ra aylanma fondlar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish fondlariga taqsimlanadi	
5	Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarishda band bo'lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi	
6	Noishlab chiqarish asosiy fondlari korxonada asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etadigan qismi	
7	Korxonaning asosiy fondlari: asosiy ishlab chiqarish fondlari va noishlab chiqarish fondlari	
8	Noishlab chiqarish asosiy fondlari o'z qiymatini tayyor mahsulotga o'tkazadi	
9	Mehnat predmetiga o'tkazuvchi ta'siriga ko'ra asosiy ishlab chiqarish fondlari aktiv va passiv turlarga bo'linadi	

10	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining passiv turiga quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalar, transport vositalar, texnologik liniyalar ya'ni biror-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.	
11	Asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalar, transport vositalar, texnologik liniyalar ya'ni biror-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.	
12	Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o`rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari lizing deb ataladi	
13	Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko`rsatkichlari mavjud bo`lib ularni shartli ravishda uch guruhga bo`lish mumkin	
14	Asosiy fondlarni baholashning quyidagi usullari mavjud: boshlang`ich qiymat bo`yicha, tiklanish qiymati bo`yicha, qoldiq qiymati bo`yicha	
15	Qoldiq qiymati-asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo`lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismkarini foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog`liq bo`lgan ularni keltirish, o`rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat	

### **Mavzu: KORXONANING AYLANMA MABLAG`LARI**

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy fondlar) va ishchi kuchidan tashqari, aylanma mablag`larga ham ega bo`lishlari zarur. Aylanma mablag`lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo`ljallangan pul mablag`laridan iborat. Aylanma mablag`lar, qoidaga ko`ra, korxonaning hisob raqamida naqd pul ko`rinishida jamg`ariladi. Har bir korxonaning aylanma mablag`lari asosiy fondlarning texnik holati va mahsulot ishlab chiqarish dasturi bilan bog`liq. Korxonalar qanchalik katta va uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlari ko`p bo`lsa, aylanma mablag`lar shunchalik ko`p talab qilinadi. Aylanma mablag`lar ishlab chiqarish va uning uzluksizligini ta'minlashning moddiy asosi hisoblanadi.

**Aylanma kapital** korxonalar ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo`lib, uning qiymati ishlab chiqarishning har bir siklida ishlab chiqarilgan mahsulotga o`tkaziladi hamda ushbu tovarni sotgandan so`ng korxonaga qaytariladi. Aylanma kapital ko`pincha korxonaning pul mablag`lari hisoblanuvchi yoki ishlab chiqarish jarayonida pul mablag`lariga aylantiriluvchi harakatchan aktivlari qatoriga kiritiladi. Korxonalarining aylanma mablag`lari aylanma fondlari va muomala fondlariga taqsimlanadi.

**Aylanma ishlab chiqarish fondlari**– korxonada ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo‘lib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o‘zgartirib, o‘z qiymatini to‘liq icha tayyor mahsulot tannarxiga o‘tkazadi.

**Muomala fondlari** korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari, shuningdek, chek va veksellar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisob raqamlaridagi mablag‘lardan iborat bo‘ladi. Shakllanish manbaiga ko‘ra, aylanma mablag‘lar xususiy va qarzga olingan turlarga bo‘linadi.

**Xususiy aylanma mablag‘lar** doimo korxonada ixtiyorida bo‘lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi. Korxonaning xususiy aylanma mablag‘lari qatoriga ish haqi bo‘yicha qarzlari, ta‘minotchilar yoki hamkorlar qarzlari, buyurtmachilarning tayyorlangan mahsulot uchun to‘lagan pullari kabilarni kiritish mumkin.

**Qarzga olingan aylanma mablag‘lar** doimo harakatda bo‘lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta‘minlash, mahsulot ishlab chiqarish dasturini oshirib bajarish va boshqa vaqtinchalik ehtiyojlarni qoplash uchun foydalaniladi. Ular qatoriga bank kreditlari, kreditorlik qarzlari (tijorat kreditlari) va boshqa passivlarni kiritish mumkin.

**Aylanma mablag‘larni normalashtirish** korxonaning uzluksiz ishlashi ta‘minlaydigan moddiy boylik va boshqa resurslarning minimal, lekin yetarli zahiralarni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini aniqlashda ifodalanadi. U ichki zahiralarni aniqlash, ishlab chiqarish sikli davomiyligini qisqartirish va tayyor mahsulotni tezroq sotish imkon yaratadi.

Korxonada aylanma mablag‘laridan samarali foydalanish uchta asosiy ko‘rsatkichni tavsiflaydi:

- 1)aylanishkoeffitsiyenti;
- 2)aylanma mablag‘larning yuklanish koeffitsiyenti;
- 3)vositlarning bir marta aylanishi davomiyligi.

**Aylanish koeffitsiyenti** korxonada aylanma mablag‘larining ma‘lum bir vaqt (yil, chorak) davomida amalga oshiruvchi aylanishini tavsiflaydi yoki aylanma mablag‘larning har 1 so‘miga to‘g‘ri keluvchi sotilgan mahsulotlarni ko‘rsatadi. U quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_a = \frac{R_m}{S_a}$$

Bu yerda:

$R_m$  –sotilgan mahsulot hajmi, pul o‘lchovida;

$S_a$  – aylanma mablag‘larning o‘rtacha qoldiq hajmi, pul o‘lchovida (aylanma mablag‘lar normativi).

**Aylanma mablag‘larni yuklanish koeffitsiyenti**aylanish koeffitsiyentiga teskari bo‘lgan qiymatdir. U sotilgan har 1 so‘m mahsulotga sarflangan aylanma mablag‘larni tavsiflaydi hamda quyidagi formula asosida hisoblab topiladi:

$$K_{yu} = \frac{S_a}{R_m}$$

**Bir marta aylanish davomiyligi** kunlarda o‘lchanadi hamda shu davrdagi kunlar sonini aylanish koeffitsiyentiga nisbati orqali quyidagi formula asosida hisoblanadi:



T q D : K<sub>a</sub>

**Tayanch iboralar:**

1. Aylanma mablag'lar;
2. aylanma kapital;
3. aylanma ishlab chiqarish fondlari;
4. muomala fondlari;
5. xususiy aylanma mablag'lar;
6. Qarzga olingan aylanma mablag'lar;
7. Aylanma mablag'larni normalashtirish;
8. Aylanish koeffitsiyenti;
9. Aylanma mablag'larni yuklanish koeffitsiyenti;
10. Bir marta aylanish davomiyligi.

**Nazorat savollari:**

1. Aylanma mablag'larning korxonalar faoliyatidagi ahamiyati qanday?
2. Aylanma mablag'lar qanday turlarga taqsimlanadi?
3. Aylanma kapital nima?
4. Aylanma ishlab chiqarish fondlarining muomala fondlaridan asosiy farqi nimada hisoblanadi?
5. Xususiy aylanma mablag'lar haqida nimalar bilasiz?
6. Aylanma mablag'larni normalashtirishning mohiyati nimada?
7. Korxonada aylanma mablag'laridan samarali foydalanishda qanday ko'rsatkichlar farqlantiriladi?

**Test savollari:**

1. **Korxonaning aylanma fondlari - bu ...**
  - A. Ishlab chiqarish jarayonida bir marotaba qatnashib, o'zining to'liq qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotni tannarxiga o'tkazib yuboradigan ishlab chiqarish vositalarining bir qismi
  - B. Mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari
  - C. Ishlab chiqarish jarayonida bir yil ishtiroq etadigan mehnat buyumlari
  - D. ishlab chiqarish jarayonida bir necha marta qatnashib, o'z qiymatini ishlab chiqarilgan
2. **Korxonaning muomala fondi - bu...**
  - A. uzuluksiz jarayonni ta'minlovchi korxonani pul mablag'lari
  - B. korxonaning material resurslari
  - C. korxonaning omboridagi tayyor mahsulotlari, qabul qilingan mahsulot, kelayotgan, ya'ni yo'ldagi mahsulot, moliyaviy mablag'lar va tugallanmagan hisob vositalari
  - D. tayyor mahsulot, xaridorlarga yuborilgan mahsulot, qimmatli qog'ozlar, hisob raqamlari va kassadagi pul mablag'lari, amortizatsiya ajratmalari
3. **Korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga quyidagilar kiritiladi...**
  - A. aylanma mablag'lar va muomala fondi
  - B. material zapaslari, butlovchi qismlar, yoqilg'i, ambordagi tayyor mahsulot

- C. tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsulot
  - D. ishlab chiqarish zapaslari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelajakdagi xarajatlar muomala fondi
- 4. Aylanma mablag'larning aylanish koeffitsiyenti xarakterlaydi:**
- A. Iso'mlik ishlab chiqarish fondlariga to'g'ri keladigan realizatsiya qilingan mahsulot miqdori
  - B. ishlab chiqarish fondlari aylanishining o'rtacha davomiyligi
  - C. ma'lum bir davrda aylanma mablag'larni aylanish soni
  - D. mablag'larni aylanishidagi olinadigan foyda
- 5. Mahsulotning material sig'imi nimani belgilaydi?**
- A. birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallarning umumiy hajmini
  - B. materiallardan samarali foydalanishni
  - C. mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan materiallar normasini
  - D. tayyorlangan mahsulotlarning sof og'irligini
- 6. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi nimalar orqali belgilanadi?**
- A. aylanish koeffitsiyenti, bir aylanish o'rtacha davomiyligi bilan
  - B. aylanma mablag'larning qaytimi darajasi bilan
  - C. material sig'imi, fond sig'imi, fond qaytimi koeffitsiyentlari orqali
  - D. aylanma mablag'larni belgilangan normativlar ramkasiga keltirish bilan
- 7. Aylanma ishlab chiqarish fondlari guruhlarini ko'rsating?**
- A. Ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar, kelgusi davr xarajatlari
  - B. Asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari
  - C. Kommunikatsiya, diversifikatsiya, devalvatsiya
  - D. Mashina va apparatlar, ishchi xodimlar, tayyor mahsulotlar
- 8. Aylanma ishlab chiqarish fondiga kirmaydiganini aniqlang?**
- A. Uzatish qurilmalari
  - B. Kelgusi davr xarajatlari
  - C. Tugallanmagan ishlab chiqarish
  - D. Ishlab chiqarish zaxiralari
- 9. Shakllanish manbaiga ko'ra aylanma mablag'lar qanday turlarga bo'linadi?**
- A. Xususiy va qarzga olingan
  - B. Doimiy va o'zgaruvchan
  - C. Qarzga olingan va qarzga berilgan
  - D. Bo'linmaydi
- 10. Xususiy aylanma mablag'lar...**
- A. doimo korxonada ixtiyorida bo'lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi
  - B. Doimo harakatda bo'lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta'minlash va h.k.
  - C. Har ikkala javob to'g'ri
  - D. To'g'ri javob yo'q

**11. Qarzga olingan aylanma mablag'lar...**

- A. Doimo harakatda bo'lmaydi hamda korxonaning mahsulotlarni sotishdagi qiyinchiliklar, moddiy-tovar boyliklar bilan ta'minlash va h.k.
- B. doimo korxonada ixtiyorida bo'lib, xususiy resurslar, asosan foyda hisobiga shakllanadi
- C. Har ikkala javob to'g'ri
- D. To'g'ri javob yo'q

**12. Ishlab chiqarish zahiralarini quyidagi turlarga bo'linadi?**

- A. Joriy, sug'urta, mavsumiy
- B. Uzoq muddatli va qisqa muddatli
- C. Moddiy va ma'naviy
- D. Bo'linmaydi

**13. Joriy zahira, bu ...**

- A. Materiallar yetkazib berish oralig'ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan zahiralar
- B. Ta'minotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan holatlarda foydalanish mo'ljallanadi.
- C. Xom ashyo tayyorlashning mavsumligi, uni iste'mol qilishning mavsumligi va materiallarni yetkazib berishning mavsumiyligi sababi bilan saqlanadi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**14. Sug'urta (kafolat) zaxirasi bu...**

- A. Ta'minotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan holatlarda foydalanish mo'ljallanadi.
- B. Materiallar yetkazib berish oralig'ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan zahiralar
- C. Xom ashyo tayyorlashning mavsumligi, uni iste'mol qilishning mavsumligi va materiallarni yetkazib berishning mavsumiyligi sababi bilan saqlanadi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**15. Mavsumiy zahira bu...**

- A. Xom ashyo tayyorlashning mavsumligi, uni iste'mol qilishning mavsumligi va materiallarni yetkazib berishning mavsumiyligi sababi bilan saqlanadi
- B. Ta'minotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan uzilishlar yoki ko'zda tutilmagan holatlarda foydalanish mo'ljallanadi.
- C. Materiallar yetkazib berish oralig'ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan zahiralar
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**16. ... bu, materiallar yetkazib berish oralig'ida ishlab chiqarishni moddiy resurslar bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan zahiradir. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.**


- A. Joriy zahira
- B. Aylanma mablag'larni normalashtirish
- C. Qarzga olingan aylanma mablag'lar

#### D. Xususiy aylanma mablag'lar

#### Mavzuga oid "Ha" yoki "Yo'q" texnologiyasi:

<b>T/R</b>	<b>Mulohazalar</b>	<b>javob</b>
<b>1</b>	Aylanma mablag'lar ishlab chiqarishning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil qilishga mo'ljallangan pul mablag'laridan iborat.	
<b>2</b>	Aylanma mablag'lar korxonaning hisobraqamida naqdsiz pul ko'rinishida jamg'ariladi	
<b>3</b>	Korxonaga qanchalik katta va uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari turlari ko'p bo'lsa, aylanma mablag'lar shunchalik ko'p talab qilinadi	
<b>4</b>	Aylanma ishlab chiqarish fondlari—korxonaga ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo'lib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o'zgartirib, o'z qiymatini to'lig'icha tayyor mahsulot tannarxiga o'tkazadi.	
<b>5</b>	Muomala fondlari korxonaning tayyor mahsulot zahirasini yaratish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, shuningdek, chek va vekselar, aksiyadorlarning qarzlari, turli xil debitorlik qarzlari, bank va kassalarning hisob raqamlaridagi mablag'lardan iborat emas.	
<b>6</b>	Aylanma mablag'lar kattaligi, shuningdek, mahsulotlarni sotish sharoitlari, ta'minot va mahsulotni sotish tizimini tashkil qilish darajasi bilan ham bog'liq bo'lmaydi.	
<b>7</b>	Zahiralar kelib chiqishi va foydalanilishiga ko'ra xalq xo'jaligiga va tarmoqlarga tegishli yoki tarmoqlararo, ishlab chiqarish ichidagi (zavod, sex va hokazo) turlariga bo'linadi.	
<b>8</b>	Korxonaga ishlab chiqarish zahiralarini va aylanma mablag'larning ta'minlanganligini haddan tashqari oshirishga intilmasligi zarur emas.	

#### Mavzuga oid Krossvord:



### Savollar:

1. ... moddiy va pul resurslarini yaxshilashning yuzaga kelgan yoki yuzaga kelayotgan, lekin hali foydalanilmagan (to'liq yoki qisman) imkoniyatlarini tushunish lozim.
2. Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishda mehnat qurollari (asosiy fondlar) va ishchi kuchidan tashqari qanday mablag'larga ham ega bo'lishlari zarur?
3. Aylanma... korxonalar ishlab chiqarish kapitalining bir qismi bo'lib, uning qiymati ishlab chiqarishning har bir siklida ishlab chiqarilgan mahsulotga o'tkaziladi hamda ushbu tovarni sotgandan so'ng korxonaga qaytariladi.
4. Zahiralar kelib chiqishi va foydalanilishiga ko'ra xalq xo'jaligiga va tarmoqlarga tegishli yoki qanday turdagi ishlab chiqarish ichidagi (zavod, sex va ahokazo) turlariga bo'linadi?
5. Bozor munosabatlari va deyarli barcha resurslar taqchilligi sharoitlarida aylanma mablag'lar, birinchi o'rinda ... resurslardan rastional foydalanish va ularni shakllantirish zahiralarini izlab topish har bir korxonalar oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

6. Aylanma ishlab chiqarish fondlari korxonada aylanma mablag'larining qanday qismi bo'lsa, muomala fondlari ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etmaydi hamda yangi iste'mol qiymatini yaratmaydi?
7. Uchinchi bosqichda aylanma mablag'lar ... mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi .
8. Shakllanish manbaiga ko'ra, aylanma mablag'lar xususiy va qanday turlarga bo'linadi?
9. Xususiy aylanma mablag'lar doimo korxonada ixtiyorida bo'lib, xususiy resurslar, asosan nima hisobiga shakllanadi ?

## **Mavzu: KORXONADA XODIMLAR, MEHNATNI TASHKIL ETISH VA HAQ TO'LASH**

“**Hamma narsani kadrlar hal qiladi**” qoidasi iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi kunlarda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Prezident I.Karimov aytganidek: “Bugungi kunda biz oldimizga qanday vazifalarni qo'ymaylik, bizning oldimizda qanday muammolar mavjud bo'lmasin, ularning barchasi pirovardida kadrlar va faqat kadrlarga borib taqaladi.”

**Salohiyat** (potensial) tushunchasining o'zi lotin tilidan olingan bo'lib (potentia), imkoniyat, kuch-quvvat, yashirish imkoniyat ma'nosini anglatadi.

**Kadrlar salohiyati**- mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy ko'nikmalari, korxonaning u yoki bu bo'g'inlarida va jamoatchilik ishlab chiqarishida qatnashishi bilan ifodalanuvchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi.

Korxonada xodimlarining ro'yxat bo'yicha tarkibi zamonaviy tasnifi bo'yicha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **sanoat-ishlab chiqarish personali** (S.ICh.P) - asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari (IT va TL.I), hisoblash markazi xodimlari;
- **noishlab chiqarish personali** - uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda, sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar;
- **rahbarlar** - direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal (MTP);
- **xizmatchilar** - hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari (agentlar, g'aznachilar, ish yurituvchilar, kotiblar, statistlar va hokazo).

Ishchi kuchi va umuman, kadrlar, ishlab chiqarishning muhim elementi hisoblanadi. Shu sababli korxonada ishlab chiqarish faoliyatining joriy va

istiqboldagi strategiyasi **kadrlar siyosati** bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- ishchi kuchini yollash, joylashtirish va rejalashtirish;
- xodimlarni o‘qitish, tayyorlash va malakasini oshirish;
- kadrlarni xizmat lavozimlari bo‘yicha yuqori pog‘onaga ko‘tarish;
- yollash shartlari, mehnat va unga haq to‘lash sharoitlari;
- mehnat jamoasida qulay ruhiy (psixologik) muhitni yaratish

**Ish haqi** - har bir xodimning sarflagan mehnati miqdori va sifatiga mos ravishda taqsimlanuvchi va xodim tasarrufiga pul shaklida kelib tushuvchi milliy daromadning bir qismidir. Ish haqi–bu mehnat uchun mukofotdir.

Ish haqining nominalvareal turlari mavjud.

**Nominal ish haqi**– bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to‘langan ish haqidir.

**Real ish haqi**–nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori; real ish haqi – bu, nominal ish haqining “iste'mol qobiliyati”dir.

**Mehnatga ishbay haq to‘lash** ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat) uchun to‘lanadigan haqni anglatadi.

Korxonalarda ko‘pincha faqat ishbay emas, balki ishbay-mukofotli haq to‘lashdan foydalaniladi.

**Mehnatga ishbay-mukofotli haq to‘lashda** ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ham ega bo‘ladi. Mukofot asosan ma'lum bir ko‘rsatkichlarga erishish - mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish, mahsulot sifatini oshirish, xom ashyo va materiallarni tejash va shu kabilar uchun beriladi.

**Mehnatga vaqtbay haq to‘lash** tarif tizimida ko‘zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt - kalendar vaqt emas, balki normativ vaqt uchun to‘lanadigan haqni anglatadi.

**Vaqtbay-mukofotli haq to‘lashda** ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobida mukofot ham oladi.

**Mehnatga akkord haq to‘lash tizimi** mehnatga ishbay haq to‘lashning bir turi bo‘lib, uning mohiyatiga ko‘ra, bunda bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni muddatini ko‘rsatgan holda baholash amalga oshiriladi.

Ko‘pchilik korxonalarda ish haqini hisoblash tarif tizimi, ayniqsa uning tarif stavkasi va tarif setkalari kabi elementlari asosida amalga oshiriladi.

**Tarif stavkasi**– turli guruh va kategoriyadagi ishchilarning vaqt birligidagi mehnati uchun to‘lanuvchi haqning mutlaq (absolyut) o‘lchamidir. Minimal tarif stavkasi yoki birinchi razryadli stavka boshlang‘ich hisoblanadi.

**Tarif setkalari** mehnatga haq to‘lashdagi mutanosibliklarni malaka darajasini hisobga olgan holda, belgilash uchun xizmat qiladi. U tarif razryadlari va ularga mos keluvchi tarif koeffitsiyentlari yig‘indisini ifodalaydi.

### **Tayanch iboralar:**

1. **kadrlar;**
2. **salohiyat;**
3. **kadrlar salohiyati;**

4. sanoat-ishlab chiqarish personali;
5. noishlab chiqarish personali;
6. ish haqi;
7. ish haqi turlari;
8. mehnatga akkord haq to'lash tizimi;
9. tarif stavkasi;
10. tarif setkasi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Korxonalarda kadrlarning ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Kadrlar salohiyati deganda nimani tushunasiz?
3. Korxonada xodimlarining ro'yxat bo'yicha tarkibi zamonaviy tasnifi bo'yicha qaysilarni o'z ichiga oladi?
4. Ish haqining qanday turlarini bilasiz?
5. Real ish haqi nominal ish haqidan qanday jihatlari bilan farq qiladi?
6. Mehnatga akkord haq to'lash tizimi qaysi hollarda amalga oshiriladi?
7. Tarif stavkasi va tarif setkasining farqini tushuntirib bering.

#### **Test savollari:**

1. **Potensial tushunchasi qaysi tildan olingan?**
  - A. Lotin
  - B. Rus
  - C. O'zbek
  - D. Ingliz
2. **Kadrlar salohiyati (potensial) tushunchasining to'g'ri ta'rifini belgilang?**
  - A. Mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi, yoshi, ma'lumoti, kasbiy ko'nikmalari
  - B. Korxonadagi ishlovchilarni yoshi, jinsi, millati, irqi, dini
  - C. Mehnat resurslarining ma'lumoti, oilasining katta-kichikligi, oilaning hayotiy davri va h.k.
  - D. Raqib korxonani mavjud korxonaga bilan taqqoslash
3. **Salohiyat (potensial) ning lug'aviy ma'nosini ko'rsating?**
  - A. Imkoniyat, kuch-quvvat, yashirish imkoniyat
  - B. Mehnat resursi
  - C. Xitoy devori
  - D. Shaxs
4. **Korxonalarda kadrlar salohiyatidan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni belgilang?**
  - A. Xodimlarning manfaatdorligi, atrof-muhit, boshqarish usullari
  - B. YaIM, kelgusi davr xarajatlari, mashina va apparatlar
  - C. Biznes, tadbirkorlik, mikrofirmalar
  - D. Aqliy, jismoniy kuchlanish, aylanma mablag'lar
5. **Sanoat ishlab chiqarish personalini (SICHP) to'g'ri ta'rifini belgilang?**
  - A. Asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvchi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari, hisoblash markazi xodimlari



- B. Uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar
- C. Direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal
- D. Hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari

**6. Xizmatchilarga berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang?**

- A. Hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari
- B. Uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar
- C. Direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal
- D. Asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvchi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari, hisoblash markazi xodimlari

**7. Noishlab chiqarish personaliga berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang.**

- A. Uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar
- B. Asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvchi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari, hisoblash markazi xodimlari
- C. Direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal
- D. Hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari

**8. Rahbar personaliga berilgan to'g'ri ta'rifni belgilang?**

- A. Direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muhandis-texnik personal xodimlari
- B. Uy-joy, kommunal va yordamchi xo'jaliklarda sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlar
- C. Asosiy va yordamchi sexlar, zavod boshqaruvchi, laboratoriya, ilmiy-tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo'limlari, hisoblash markazi
- D. Hujjatlarni tayyorlash, hisob-kitob va nazorat qilish, xo'jalik xizmati xodimlari

**9. Ishchilarni qabul qilish bo'yicha aylanish koeffitsiyentini belgilang.**

Ishga qabul qilingan personal soni

A.  $K_{pr} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan personal soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxatsoni}}$

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

Ishdan bo'shagan xodimlar soni

B.  $K_v = \frac{\text{Ishdan bo'shagan xodimlar soni}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxatsoni}}$

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun bo'shagan xodim

C.  $K_t = \frac{\text{O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun bo'shagan xodim}}{\text{Personalning o'rtacha ro'yxatsoni}}$

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

Butun yil davomida ishlagan xodim

D.  $K_{p.s.} =$ -----

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

**10. Korxonada personalni tarkibini doimiy koeffitsiyentini belgilang.**

Butun yil davomida ishlagan xodim

A.  $K_{p.s.} =$ -----

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

Ishga qabul qilingan personal soni

B.  $K_{pr} =$ -----

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

Ishdan bushagan xodimlar soni

C.  $K_v =$ -----

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

O'z xohishiga ko'ra va mehnat intizomini buzganlik uchun bo'shagan xodim

D.  $K_t =$ -----

Personalning o'rtacha ro'yxatsoni

**11. Nominal ish haqining ta'rifini belgilang?**

A. Bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to'langan ish haqidir

B. Nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori

C. Ishchi xodimga shtat jadvali bo'yicha beriladigan maosh

D. Daromad solig'i, pensiya fondi va kasaba uyushmasi badali to'lanib, ishchi xodimning qo'lga beriladigan mablag'

**12. Real ish haqining ta'rifini belgilang?**

A. Nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori

B. Bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajargan mehnati uchun hisoblangan va to'langan ish haqidir

C. Ishchi xodimga shtat jadvali bo'yicha beriladigan maosh

D. Daromad solig'i, pensiya fondi va kasaba uyushmasi badali to'lanib, ishchi xodimning qo'lga beriladigan mablag'

**13. Ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat, uchun to'lanadigan haqni anglatadi)**

A. Ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat, uchun to'lanadigan haqni anglatadi)

B. Tarif tizimida ko'zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt normativ vaqt uchun to'lanadigan haqni anglatadi

C. Ishchi bajargan ishga haq olishdan tashqari, mukofotga ega bo'ladi.

D. Ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobiga mukofot ham oladi.

**14. Vaqtbay ish haqining ta'rifini belgilang?**

A. Tarif tizimida ko'zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt normativ vaqt uchun to'lanadigan haqni anglatadi

B. Ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat, uchun to'lanadigan haqni anglatadi)

C. Ishchi bajargan ishga haq olishdan tashqari, mukofotga ega bo'ladi.

D. Ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobiga mukofot ham oladi.

**15. Ishbay mukofot haqiga berilgan ta'rifni belgilang?**

A. Ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ega bo'ladi.

B. Tarif tizimida ko'zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt normativ vaqt uchun to'lanadigan haqni anglatadi

C. Ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat, uchun to'lanadigan haqni anglatadi

D. Ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobiga mukofot ham oladi.

**16. Vaqtbay-mukofot haqiga berilgan ta'rifni belgilang?**

A. Ishchi ishlab bergan vaqtiga haq olishdan tashqari, ushbu ish haqiga ma'lum bir foiz hisobiga mukofot ham oladi.

B. Ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat, uchun to'lanadigan haqni anglatadi

C. Tarif tizimida ko'zda tutiluvchi ishlab berilgan vaqt normativ vaqt uchun to'lanadigan haqni anglatadi

D. Ishchi bajargan ishiga haq olishdan tashqari, mukofotga ega bo'ladi

**17. Ishbay ish haqini turlarini belgilang.**

A. To'g'ridan-to'g'ri, ishbay-mukofot, ishbay-progressiv, akkord

B. Allonj, to'g'ri, noto'g'ri, mukofot

C. To'g'ri va mukofot

D. Akkord, allonj, mukofotli

**18. Akkord haq to'lashga tegishlisini tanlang?**

A. Mehnatga ishbay haq to'lashning bir turi bo'lib, bunda bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni muddatini ko'rsatgan holda va xar bir ishlovchiga ema, balki guruhga belgilanadi

B. Bajarilgan ish vaqtga qarab, mukofot beriladi

C. Mehnat unumdorligi, tarif setkasi va stavkasiga qarab jarima solinadi

D. Vaqtbay-mukofot ish haqi

**19. Mehnat taqsimoti va mehnat unumdorligini oshirish qonuni birinchi marta kim qo'llagan?**

A. AdamSmit

B. FilippKotler

C. ErkinEgamberdiyev

D. K.Marks

**20. Nimaturliguruhvakategoriyadagiishchilarningvaqtbirligidagimehnatiuchun to'lanuvchihaqningmutlaq (absolyut) o'lchamihisoblanadi?**

A. Tarif setkasi

B. Tarif stavkasi

C. Akkord

D. Ishbay-mukofot

### Mavzuga oid “Ha” yoki “Yo’q” texnologiyasi:

T/R	Mulohazalar	javob
1	Kadrlar salohiyati - mehnat resurslarining umumiy soni va jinsi , yoshi, ma’lumoti, kasbiy ko’nikmalari, korxonaning u yoki bu bo’g’inlarida va jamoatchilik ishlab chiqarishda qatnashishi bilan ifodalovchi mehnat resurslari yoki imkoniyatlarini ifodalaydi.	
2	Kadrlar korxonada mehnat bilan band bo’lgan hamda korxonada shaxsiy tarkibiga kiruvchi turli kasbiy – malakaviy guruhlardagi xodimlar majmuasidir.	
3	Korxonaning mehnat resurslari uning ishchi kuchini tavsiflaydi.	
4	Korxonada personalni doimiy va yollanib ishlovchi, malakali va malakasiz barcha xodimlardan iborat bo’lgan shaxsiy tarkibni izohlamaydi.	
5	Ishchi kuchi – insonning mehnat qilishga jismoniy va aqliy qobiliyatlari hisoblanadi.	
6	Ishchi kuchi tovar holiga keltiriladi va bu tovar boshqa tovarlardan farq qilmaydi.	
7	Sanoat – ishlab chiqarish personalni – asosiy yordamchi sexlar , zavod boshqaruvi, laboratoriya, ilmiy – tadqiqot va tajriba-loyihalashtirish bo’limlari, hisoblash markazi xodimlaridan iborat.	
8	Bozor munosabatlari sharoitida mehnat qobiliyati, ishchi kuchini tovar holiga keltiradi.	
9	Noishlab chiqarish personalni –uy-joy, va yordamchi xo’jaliklarda, sog’liqni saqlash, profilaktika va ta’lim muassasalarida faoliyat yurituvchi xodimlardir.	
10	Rahbarlar – direktor, direktor o’rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo’lim va xizmat boshliqlari, ya’ni muxandis –texnik personalni	
11	Xizmatchilar – hujjatlarni tayyorlash, hisob kitob va nazorat qilish, xo’jalik xizmati xodimlari .	
12	Korxonaning sanoat ishlab chiqarish personalining asosiy va ko’p sonli qismini rahbarlar va ularning yordamchilari tashkil etadi.	
13	Korxonaning faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilishda, mehnat unumdorligi, o’rtacha ish haqi, kadrlar aylanishi va oqimini hisoblashda o’rtacha ro’yxat soni ko’rsatkichi qo’llaniladi.	
14	O’rtacha ro’yxat soni ko’rsatkichi yil yoki chorak uchun korxonada faoliyat ko’rsatgan barcha oylar uchun ishchilarning o’rtacha ro’yxatdagi sonini qo’shish va hosil bo’lgan yig’indisini mos ravishda 3 ga bo’lish yo’li bilan aniqlanadi.	
15	Mutaxassislik –insonda ma’lum bir turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi.	

<b>16</b>	Korxonada ishlab chiqarish faoliyatining joriy va istiqboldagi strategiyasi kadrlar siyosati bilan chambarchas bo'liq.	
<b>17</b>	Malaka deganda biron - bir kasb yoki mutaxassislik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalari va darajasi tushuniladi.	
<b>18</b>	Nominal ish haqi – bu xodimning ma'lum bir vaqt mobaynida bajaradigan mehnati uchun hisoblagan va to'lanadigan ish haqidir	

**Bir-biriga mos keladigan kataklarni belgilang:**

1. Kadrlar salohiyati	<b>A.</b> turli guruh va kategoriyada ishchilarning vaqt birligidagi mehnati uchun to'lanuvchi haqning mutloq o'lchamidir.
2. Ishchi kuchi	<b>B.</b> mehnat uchun mukofotdir
3. Tarif stavkasi	<b>C.</b> Biror-bir kasb yoki mutaxassislik bo'yicha murakkab ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalari va darajasi tushuniladi.
4. Tarif setkasi	<b>D.</b> Direktor, direktor o'rinbosarlari, bosh mutaxassislar, bo'lim va xizmat boshliqlari, ya'ni muxandis –texnik personal
5. Malaka	<b>E.</b> Insonda ma'lum bir turdagi ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasining mavjudligi bilan tavsiflanadi.
6. Ish haqi	<b>F.</b> uy-joy, va yordamchi xo'jaliklarda, sog'liqni saqlash, profilaktika va ta'lim muassa salarida faoliyat yurituvchi xodimlardir.

**Mavzu: ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI, FOYDA VA RENTABELLIK**

Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflaydilar. Korxonaning umumiy xarajatlari ichida ishlab chiqarish xarajatlari eng katta salmoqqa ega. Ishlab chiqarish xarajatlari majmuasi korxonaga mahsulot ishlab chiqarish qanchaga tushishini ko'rsatadi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladi.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxini tashkil qiluvchi xarajatlar iqtisodiy mazmuniga ko'ra, quyidagi elementlarga asosan guruhlariga taqsimlanadi:

- moddiy xarajatlar;
- asosiy fondlar amortizatsiyasi;
- mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
- ijtimoiy ehtiyojlarga mo'ljallangan xarajatlar;
- boshqa xarajatlar.

**Moddiy xarajatlar** ishlab chiqarish xarajatlarning eng katta qismi bo'lib, umumiy xarajatlarning 60 - 80 foizini tashkil qilishi mumkin.

**Amortizatsiya ajratmalari** miqdoriga teng bo'lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasini kiritish mumkin.

**Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar** korxonaning asosiy ishlab chiqarish personalini mehnatiga haq to'lashga sarflanadigan xarajatlar bo'lib, ishlab chiqarishdagi yuqori natijalar uchun mukofotlar, rag'batlantiruvchi va kompensatsiya to'lovlari, jumladan, qonunchilikda belgilangan normativlar chegarasida narxlarning o'sishi va indeksatsiya uchun to'lovlar, shuningdek, korxonada xodimlari shtatida bo'lmagan, lekin asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan ishchilar uchun to'lanuvchi haqni o'z ichiga oladi.

**Ishlab chiqarish xarajatlari**ga, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishga tayyor holatda saqlab turish - kapital, o'rta va joriy ta'mirlash, mashina va asbob-uskunalarga qarash va ekspluatatsiya qilish uchun sarflanuvchi barcha xarajatlar kiradi.

**Foyda** muhim iqtisodiy kategoriya (toifa) bo'lib, har bir tijorat tashkilotining asosiy maqsadi hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida foyda-moddiy ishlab chiqarish sohasida yaratilgan sof daromadni aks ettiradi.

Korxonada foyda turli xil faoliyat natijasida olinishi mumkin. Barcha foydalar yig'indisi korxonaning yalpi foydasini tashkil qiladi. Yalpi foydaning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat va mahsulot sotishdan olingan foyda;
- asosiy fondlar, shuningdek, korxonaning boshqa mulki sotishdan olingan foyda;
- korxonaning moliyaviy faoliyati orqali olinuvchi foyda.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida **rentabellik**ning ahamiyati va o'rni o'sib bormoqda. U korxonada faoliyati va kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligining asosiy mezonini, korxonada va xo'jalik yurituvchi tashkilotlarni baholashning sintetik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish rivojlanishining samaradorligi va intensivligini baholashda amaliyotda rentabellik ko'rsatkichlari tizimi keng qo'llanib, unga ko'ra foydaning miqdori belgilangan hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, rentabellik daromadlilik, foydalilikni anglatadi.

**Rentabellik ko'rsatkichlari** korxonada faoliyati qanchalik foyda keltirishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlar moliyaviy hisobotning ichki va tashqi foydalanuvchilarda qiziqish uyg'otib, korxonada resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda uning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyatini aniqlaydi.

Quyida korxonada faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi **rentabellikning asosiy ko'rsatkichlari** keltirilgan.

Sof foyda (SF)

$$\text{Aktivlar rentabelligi (RA) q} = \frac{\text{Sof foyda (SF)}}{\text{Aktivlarning o'rtacha yillik qiymati (A)}}$$

$$\text{Sotish rentabelligi (RS) } q = \frac{\text{Sof foyda (SF)}}{\text{Mahsulotni sotishdan tushgan tushum (ST)}}$$

$$\text{Xususiy kapital rentabelligi (XK) } = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapital o'rtacha yillik qiymat (XK)}}$$

$$\text{Bitta aksiya daromadi (AF) } q = \frac{\text{Sof foyda (SF)}}{\text{Muomaladagi aksiyalar soni (Na)}}$$

Shu tariqa, tavsiya qilinuvchi ko'rsatkichlar tahlil jarayonida korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash, ishlab chiqarish samaradorligi va korxonaning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishga oid chora-tadbirlar belgilashga imkoniyat yaratadi.

#### **Tayanch iboralar:**

1. xarajatlar;
2. moddiy xarajatlar;
3. mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;
4. foyda;
5. yalpi foyda;
6. foydani taqsimlash tamoyillari;
7. rentabellik;
8. rentabellik ko'rsatkichlari;
9. aktivlar rentabelligi;
10. xususiy capital rentabelligi;
11. sotish rentabelligi;
12. bitta aksiya daromadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Korxonalar faoliyatida xarajatlarning qanday turlari farqlantiriladi?
2. Moddiy xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
3. Ishlab chiqarish xarajatlarini tasniflang.
4. Foydaning iqtisodiy kategoriya sifatidagi ahamiyati nimadan iborat?
5. Foydani shakllantirish manbalarini izohlab bering.
6. Rentabellikning iqtisodiy mohiyati nimada?
7. Rentabellikning qanday ko'rsatkichlari mavjud?

#### **Test savollari:**

1. **Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari quyidagilardan iborat...**
  - A. xom ashyo, materiallar, asosiy fondlarning amortizatsiyasi va nomoddiy aktivlar, ish haqi, ijtimoiy sug'urtalash uchun ajratmalar va boshqa ishlab

chiqarish xarakteridagi xarajatlar pul formasida ifodalangan mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish uchun sarflangan xarajatlardan

- B. ishlab chiqarish kundalik xarajatlardan
  - C. ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan kundalik va kapital xarajatlardan
  - D. barcha javoblar to'g'ri
2. **Iqtisodiy elementlar bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi quyidagi maqsadlar uchun zarur:**
- A. ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar smetasini tuzish uchun
  - B. ma'lum birturdagi aniq mahsulot turli xarajatlarini hisoblash uchun
  - C. mahsulot narxini asoslash uchun
  - D. ish haqi uchun xarajatlarini aniqlash uchun
3. **Kalkulyatsiya moddalarini bo'yicha xarajatlar tasnifi zarur:**
- A. ma'lum bir turdagi aniq mahsulotni ishlab chiqarish
  - B. detal zagatovkasi, uzellarini narxini aniqlash uchun
  - C. to'g'ri va egri xarajatlarni aniqlash uchun
  - D. ishlab chiqarish xarajatlari tizimini tuzish uchun
4. **Davr xarajatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:**
- A. ilmiy tekshirish va tajriba konstruktorlik tadqiqotlar, ishlab chiqarishni rivojlantirish boshqaruv tizimi uchun xarajatlarni va boshqa operatsion xarajatlarni
  - B. sotuv va boshqaruv hamda boshqa operatsion xarajatlarini
  - C. tijorat chiqimlari
  - D. umumxo'jalik chiqimlari
5. **O'zgaruvchan xarajatlar o'z ichiga nimalarni oladi?**
- A. moddiy xarajatlar va xodimlarni ish haqi uchun xarajatlar
  - B. mahsulot realizatsiyasi uchun xarajatlarini
  - C. amortizatsiya xarajatlarini
  - D. ishlab chiqarish modernizatsiyasi uchun xarajatlarini
6. **Xarajatlarni doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lishdan maqsad nima hisoblanadi?**
- A. foydali va zararsiz ishlashni bashorat qilish
  - B. mahsulotni bahosini aniqlash
  - C. ishlab chiqarish hajmini prognozlash
  - D. korxonani daromad va xarajat balansini tuzish uchun
7. **Korxonada xarajatlarini kamaytirishdan manfaatdor. U qaysi shartlarga rioya qilsagina unga erishishi mumkin?**
- A. ishlab chiqarishni maksimal darajasiga erishish
  - B. ishlab chiqarish omillarini raqobatli bozorlardasotibolsa
  - C. omillarni texnik joylashtirishning predelnormalar bilan umumiy bahosi o'rtasidagi tenglikni saqlasa
  - D. doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar o'rtasidagi tenglikni qo'llab-quvvatlasa
8. **Asosiy faoliyat natijasidan foyda - bu:**
- A. mahsulot sotishdan tushgan yalpi daromaddan korxonaning hamma xarajatlarini chegirib tashlashdan



- B. mahsulotni sotishdan tushgan daromad minus realizatsiya qilingan mahsulotning tannarxi
- C. mahsulot sotishdan tushgan yalpi foydadan davr xarajatlarini ayirmasi va unga asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromad qo'shiladi yoki zarar ayiriladi
- D. davr xarajatlari minus moliyaviy xarajatlar
- 9. Rentabellik ko'rsatkichi:**
- A. sof foyda bilan korxonada aktivlarining nisbati
- B. joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- C. debitorlik qarzlari aylanuvchanligini;
- D. moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti
- 10. Realizatsiya qilingan mahsulot rentabelligi qanday aniqlanadi?**
- A. sof foydani realizatsiyadan tushgan tushumga nisbati
- B. balans foydani realizatsiya qilingan mahsulot hajmiga nisbati
- C. sof foydani korxonada mulkini o'rtacha qiymatiga nisbati
- D. balans foydani asosiy fondlar va moddiy aylanma vositalarning o'rtacha qiymatiga nisbati
- 11. Mehnat unumdorligi qanday aniqlanadi?**
- A. mahsulot miqdorini uni ishlab chiqarishga ketgan ish vaqtiga nisbati bilan
- B. mahsulot miqdorini qilingan sarf-xarajatlarga nisbati bilan
- C. mahsulot miqdorini asosiy kapitalga taqqoslash yo'li bilan
- D. mahsulot miqdorini aylanma kapitalga taqqoslash yo'li bilan
- 12. Samaradorlik nima?**
- A. «natija» va «xarajat» nisbati
- B. iqtisodiyotning o'sishi
- C. sarflangan resurslarni tejash
- D. ishlab chiqarish xarajatlarining o'sishi
- 13. Quyidagilardan qaysi biri qisqa davrda o'zgaruvchi xarajatlar hisoblanadi?**
- A. xom-ashyomateriallar xarajatlari
- B. amortizatsiya ajratmalari
- C. ijara haqi
- D. boshqaruv xodimlari maoshi
- 14. Quyidagi sarf-xarajatlardan qaysi biri mahsulotning moddiy buyum shaklini belgilab beradi?**
- A. xom-ashyo va materiallar
- B. ish haqi
- C. yonilg'i va moylash materiallari
- D. amortizatsiya ajratmasi
- 15. Quyidagilardan qaysi biri korxonada uchun ichki xarajat hisoblanadi?**
- A. bino va inshootlar amortizatsiyasi
- B. yollanib ishlovchilar ish haqi
- C. xom-ashyo xarajatlari
- D. energiya uchun to'lovlar

- 16. Ishlab chiqarish resurslari tarkibidagi quyidagi o'zgarishlardan qaysi biri uzoq muddatli davrga tegishli?**
- A. yangi quvvatlarni ishga tushirish
  - B. uchinchi ish smenasi joriy qilish
  - C. qo'shimcha ishchilarni yollash
  - D. qo'shimcha xom-ashyo va materiallarni sotib olish
- 17. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulot umumiy hajmi o'zgarmay qolganda foydani qanday o'stirish mumkin?**
- A. ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga, mahsulot bahosini oshirish hisobiga
  - B. ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hisobiga
  - C. mahsulot bahosini oshirish hisobiga
  - D. qo'shimcha resurslarni jalb qilish hisobiga
- 18. Korxonada foydasi qachon o'zining eng yuqori darajasiga yetadi?**
- A. iqtisodiy xarajatlar tejalganda
  - B. ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanganda
  - C. mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib borganda
  - D. eng oxirgi mahsulot bahosi unga qilingan xarajatlarga teng bo'lganda
- 19. Korxonada ishlab chiqarish hajmi kengayib borishi bilan qaysi omil mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajatlar pasayishi ta'sir ko'rsatadi?**
- A. mehnatning ixtisoslashuvi
  - B. boshqarishning ixtisoslashuvi
  - C. resurslardan samarali foydalanish
  - D. ko'shimcha mahsulot turlarini ishlab chiqarish
- 20. Quyidagilardan qaysi biri korxonada uchun tashqi xarajatlar hisoblanadi?**
- A. ishchi kuchini yollash xarajatlari, renta, foiz to'lovlari
  - B. bino va inshootlar amortizatsiyasi
  - C. boshqaruvchilar maoshi
  - D. mashina va uskunalarni joriy remont qilish xarajatlari

### Mavzuga oid “Ha” yoki “Yo’q” texnologiyasi:

T/R	Mulohazalar	javob
1	Korxonalar faoliyat yuritish jarayonida moddiy va pul xarajatlarini sarflamaydilar.	
2	Moddiy xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining eng katta qismi bo‘lib, umumiy xarajatlarning 60 - 80 foizini tashkil qilishi mumkin.	
3	Ishlab chiqarish xarajatlariga, asosiy ishlab chiqarish fondlarini ishga tayyor holatda saqlab turish - kapital, o‘rta va joriy ta'mirlash, mashina va asbob-uskunalarga qarash va ekspluatatsiya qilish uchun sarflanuvchi barcha xarajatlar kirmaydi.	
4	Korxonada foydasi iqtisodiy xarajatlar tejalganda o‘zining eng yuqori darajasiga yetadi.	
5	Bino va inshootlar amortizatsiyasi korxonalar uchun tashqi xarajatlar hisoblanadi.	
6	Realizatsiya qilingan mahsulot rentabelligi sof foydani realizatsiyadan tushgan tushumga nisbati orqali aniqlanadi.	
7	Sotish rentabelligi sof foydaning mahsulot sotishdan tushgan tushumga nisbati orqali aniqlanadi.	
8	Amortizatsiya ajratmalari miqdoriga teng bo‘lgan asosiy ishlab chiqarish fondlarining eskirishi xarajatlarning yirik elementlaridan biri hisoblanadi. Bular qatoriga asosiy fondlarning tezlashgan amortizatsiyasi va uning indeksatsiyasini kiritish mumkin.	
9	Xususiy kapital rentabelligi sof foydaning xususiy kapitalning yillik o‘rtacha qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi.	
10	Mahsulot sotishdan tushgan yalpi daromaddan korxonaning hamma xarajatlarini chegirib tashlashdan asosiy faoliyat natijasidan foyda hisoblanadi.	

### Mavzu: KORXONANING INVESTITSION FAOLIYATI

**Investitsiyalar**– korxonalar va xalq xo‘jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalarini yaratish yoki mavjud korxonalarini zamonaviylashtirish, ilg‘or texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va foyda (daromad) olishni ko‘paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag‘lar kiritilishidir. Investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarini bartaraf qilish va iste‘mol bozorini ta‘minlashda alohida e‘tiborga ega.

**Kapital qo'yilmalar** asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslaridir. Ular asosan bir vaqtning o'zida amalga oshiriladigan xarakterga ega bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlari yoki mahsulot tannarxi shaklidagi, joriy xarajatlardan farq qiladi. Kapital qo'yilmalar maqsadli xarakterga ega bo'ladi hamda xodimlarga mukofot to'lash, xizmat safari (komandirovka) xarajatlari va hokazolarga sarflanishi mumkin emas.

**Moliyaviy investitsiyalar** qimmatbaho qog'ozlar, aksiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga qo'yish bilan ifodalanadi.

**Real investitsiyalar** pul mablag'larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni ifodalaydi. Real investitsiyalar korxonalar, tarmoqlar va butun xalq xo'jaligining kuch-quvvatini belgilab beradi.

Rejalashtirish va boshqaruv tizimida shuningdek, investitsiya manbalarini aniqlashning ichki va tashqi turlaridan ham foydalaniladi.

Investitsiyalarning **ichki manbalari** quyidagilar:

- ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalari natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari;
- foydaning investitsiya ehtiyojlariga ajratiluvchi qismi;
- sug'urta kompaniyalari va muassasalari tomonidan tabiiy ofat va boshqa hodisalarda to'lanuvchi mablag'lar;
- korxonaning aksiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag'lar;
- yuqori turuvchi va boshqa organlar tomonidan qaytarib bermaslik asosida ajratiluvchi mablag'lar;
- xayriya va shu kabi boshqa mablag'lar.

Investitsiyalarning **tashqi manbalari** quyidagilar:

- markaziy va mahalliy byudjetdan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag'lar;
- korxonalar Nizom jamg'armasida moliyaviy yoki boshqa moddiy va nomoddiy ishtirok shaklida, shuningdek, xalqaro moliya institutlari va alohida shaxslarning to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalari shaklida kiritiluvchi xorijiy investitsiyalar;
- davlat va turli xil fondlar tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar.

Investitsion maqsadlarga yo'naltiriluvchi mablag'lar tanqisligi sharoitida lizing investitsion faoliyatni faollashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Lizing** - moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalar qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olishini anglatadi.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda korxonalar ikkita vazifani hal qilishlari lozim:

**birinchisi** - kapital qo'yilmalarning qoplanish muddati va daromadliligi nuqtai nazaridan, eng maqbul variant tanlash imkoniyatini yaratuvchi investitsion loyiha samaradorligini baholash;

**ikkinchisi** - mavjud ishlab chiqarishga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida kiritiluvchi investitsiyalar samaradorligini baholash (qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish, tannarxni kamaytirish, foydani oshirish va hokazo).

Investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda quyidagilar asosiy ko'rsatkich hisoblanadi:

**1) Sof diskontlangan daromad (SDD)** - butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig'indisining boshlang'ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$CDD = \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Bu yerda:

$N_t$  - hisob-kitoblarning t-qadamida erishiluvchi natijalar;

$X_t$  - xuddi shu qadamda amalga oshiriluvchi xarajatlar;

$T$  - hisob-kitoblarning vaqt muddati;

$e$  - diskont normasi.

**2) Investitsiyalarning daromadlilik indeksi (ID)** - keltirilgan samaraning investitsiyalar miqdoriga ( $K$ ) nisbati bo'lib, quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$ID = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E)^t}$$

Agar daromadlilik indeksi birga teng yoki undan katta bo'lsa, investitsion loyiha samarali, aks holda esa samarasiz hisoblanadi.

**3) Ichki daromadlilik normasi (IDN)** - keltirilgan samara miqdori keltirilgan investitsiya miqdoriga teng bo'lgan xoldagi diskont normasi ( $ye_{ich}$ ), ya'ni  $ye_{ich}$  (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi:

$$\sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1 + E_{uq})^t} = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1 + E_{uq})^t}$$

**4) Investitsiyalarning qoplanish muddati ( $T_i$ )** - investitsion loyihani amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati. U quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$T_u = \frac{I_c}{II_m}$$

Bu yerda:

$I_s$  - sof investitsiyalar;

$P_m$  - loyiha keltiruvchi o'rtacha yillik pul mablag'lari oqimi, so'm.

### **Tayanch iboralar:**

- 1. Investitsiyalar;**
- 2. Kapital qo'yilmalar;**
- 3. Moliyaviy investitsiyalar;**
- 4. Investitsiya loyihasi;**
- 5. Investitsiya manbalari;**
- 6. Lizing;**
- 7. kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi;**
- 8. Sof diskontlangan daromad;**
- 9. Investitsiyalarning daromadlilik indeksi;**
- 10. Ichki daromadlilik normasi;**
- 11. Investitsiyalarning qoplanish muddati.**

### **Nazorat savollari:**

1. Investitsiyalarga ta'rif bering.
2. Investitsiyalarning qanday turlari mavjud?
3. Moliyaviy investitsiyalarni izohlab bering.
4. Investitsiyalarning shakllanish manbalarini tushuntirib bering.
5. Lizing tushunchasiga ta'rif gering.
6. Kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
7. Investitsiyalarning qoplanish muddati deganda nimani tushunasiz?

### **Test savollari:**

- 1. Investitsiyalardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?**
  - A. barcha javoblar to'g'ri
  - B. yangi qurilish
  - C. korxonani kengaytirish va qayta tiklash
  - D. ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va texnik jihatdan qurollantirish
- 2. Investitsiya manbalari turlarini ko'rsating?**
  - A. ichki va tashqi
  - B. moliyaviy
  - C. real
  - D. To'g'ri javob yo'q
- 3. Yangi qurilish xamda mavjud ishlab chiqarishni kengaytirishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar elementlari qaysilardan borat?**
  - A. mashina va uskunalar sotib olishga sarflanuvchi xarajatlar
  - B. qurilish montaj ishlari xarajatlari
  - C. loyiha-qidiruv va boshqa ilmiy ishlanmalarga sarflanuvchi xarajatlar
  - D. noto'g'ri javob yo'q
- 4. ... - asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy mehnat va pul resurslaridir.**
  - A. kapital qo'yilmalar
  - B. investitsiya loyihasi

- C. moliyaviy investitsiya  
D. real investitsiya
5. **Korxonalar, tarmoqlar va butun xalq xo‘jaligining kuch quvvatini belgilab beruvchi bu?**
- A. real investitsiya  
B. investitsiya loyiqasi  
C. kapital qo‘yilmalar  
D. moliyaviy investitsiya
6. **Nima qimmatbaho qog‘ozlar, aksiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag‘larini banklarda olish maqsadida depozit qo‘yish bilan ifodalandi?**
- A. moliyaviy investitsiya  
B. investitsiya loyihasi  
C. kapital qo‘yilmalar  
D. real investitsiya
7. **Investitsiyaning qoplanish muddatini topish formulasini ko‘rsating?**
- A.  $T_i = \frac{I_s}{P_m}$
- B.  $D_p = \frac{F_s.k.}{K} \times 100$
- C.  $S = \frac{(Y_{am1} - Y_{am0})}{I_m}$
- D. barcha javob to‘g‘ri
8. **Investitsiya samaradorligini hisoblovchi formulani ko‘rsating?**
- A.  $S = \frac{(Y_{am1} - Y_{am0})}{I_m}$
- B.  $T_i = \frac{I_s}{P_m}$
- C.  $D_p = \frac{F_s.k.}{K} \times 100$
- D. to‘g‘ri javob yo‘q.
9. **Butun hisobot davri uchun joriy samaralar yig‘indisining boshlang‘ich qadamga keltirilgan miqdori yoki integral natijalarning integral xarajatlardan oshib ketishiga nima deyiladi?**
- A. Sofdiskontlangandaromad  
B. Investistiyalarningdaromadlilikindeksi  
C. Ichkidaromadliliknormasi  
D. Investistiyalarningqoplanishmuddati

10. 
$$I/D = \frac{1}{K} \sum_{t=0}^T (H_t - X_t) \frac{1}{(1+E)^t}$$
 Bu qanday formula hisoblanadi?

- A. Sof diskontlangan daromad
  - B. Investistiyalarning daromadlilik indeksi
  - C. Ichki daromadlilik normasi
  - D. Investistiyalarning qoplanish muddati
11. Keltirilgan samara miqdori keltirilgan investisiya miqdoriga teng bo'lgan xoldagi diskont normasi ( $E_{ich}$ ), ya'ni  $E_{ich}$  (IDN) quyidagi tenglik orqali aniqlanadi?
- A. Sof diskontlangan daromad
  - B. Investistiyalarning daromadlilik indeksi
  - C. Ichki daromadlilik normasi
  - D. Investistiyalarning qoplanish muddati
12. Investition loyiha amalga oshirishni boshlashdan to natijalarga erishishgacha bo'lgan minimal vaqt muddati?
- A. Sof diskontlangan daromad
  - B. Investistiyalarning daromadlilik indeksi
  - C. Ichki daromadlilik normasi
  - D. Investistiyalarning qoplanish muddati
13. Ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan. Investistiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning qaysi yo'nalishi hisoblanadi?
- A. Yangi qurilish
  - B. korxonanikengaytirish
  - C. Qayta tiklash
  - D. Texnik qayta qurollantirish
14. Investistiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning qaysi yo'nalishlari qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi sexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi?
- A. Yangi qurilish
  - B. korxonanikengaytirish
  - C. Qaytatiklash
  - D. Texnik qayta qurollantirish
15. Investistiyalardan (kapital qo'yilmalardan) foydalanishning qaysi yo'nalishlari eski sexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi?
- A. Yangi qurilish
  - B. korxonanikengaytirish
  - C. Qayta tiklash
  - D. Texnik qayta qurollantirish
16. Moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalarining qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqaruvchi



**korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olishga nima deb aytiladi?**

- A. Lizing
- B. Kredit
- C. Ssuda
- D. kapital

**17. Ishlab turgan asosiy kapitalga hisoblanuvchi amortizatsiya ajratmalari natijasida shakllanuvchi, korxonaning o'z moliyaviy vositalari qaysi manba turiga kiradi?**

- A. Tashqi
- B. Ichki
- C. Aylanma
- D. Barcha javoblar to'g'ri

**18. Qaysi investitsiyalar korxonaga, tarmoq va butun xalq xo'jaligining kuch-quvvatini belgilab beradi?**

- A. Investitsiyalar
- B. Moliyaviy investitsiyalar
- C. Real investitsiyalar
- D. Kapital qo'yilmalar

**19. ... kapitalni korxonani uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasidir?**

- A. Investitsiya loyihasi
- B. Fondlar
- C. Kapital qo'yilmalar
- D. Investitsiyalar

**20. Rejalashtirish va boshqaruv tizimida shuningdek, investitsiya manbalarini aniqlashning qanday turlaridan foydalaniladi?**

- A. Ichki
- B. Tashqi
- C. A va B javoblar to'g'ri
- D. To'g'ri javob berilmagan

**Mavzuga oid "Ha" yoki "Yo'q" texnologiyasi:**

<b>T/R</b>	<b>Mulohazalar</b>	<b>javob</b>
<b>1</b>	Lizing bitimida ko'rsatilgan tomonlardan tashqari investitsion loyihalarni moliyalashtirish hamda ularni buning uchun zarur bo'lgan mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan tijorat yoki investitsion banklar ham ishtirok etishi mumkin.	
<b>2</b>	Qayta tiklashda eski stexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat berilmaydi.	


3	Kapital qo'yilmalarning mulk shakliga ko'ra tuzilmasi– bu, investistiyalarning davlat, akstiyadorlik, qo'shma, ijara va boshqa turdagi jamoa korxonalari o'rtasida taqsimlanishidir.	
4	Xarajatlar qanchalik kam va natijalar qanchalik ko'p bo'lsa, samaradorlik ham shunchalik yuqori bo'ladi.	
5	Real investistiyalar qimmatbaho qog'ozlar, akstiya va obligastiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foiz olish maqsadida depozit hisob raqamlariga qo'yish bilan ifodalanadi	
6	Investistiyalarning daromadlilik indeksi (ID) - keltirilgan samara ning investistiyalar miqdoriga (K) nisbati hisoblanmaydi.	
7	Minimum xarajatlar va maksimum natijalar - investistiyalar va investistion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda uslubiy asos hisoblanmaydi.	
8	Investistiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklarini bartaraf qilish va iste'mol bozorini ta'minlashda alohida e'tiborga ega.	
9	Kapital qo'yimlarni asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslaridir.	
10	IDN talab qilinuvchi daromad normasiga teng yoki undan katta bo'lsa, u holda loyiha samarali hisoblanadi.	
11	Investistiyalar davlat va korxonalarining asosiy fondlarni zamonaviylashtirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ishlab chiqarish potentsialini mustahkamlash yo'lidagi faoliyatidagi muhim vosita hisoblanmaydi.	
12	Investistiyalar real, yalpi, moliyaviy va portfel turlariga taqsimlanadi. Real investistiyalar korxonaning iqtisodiy potentsialini yaxshilashda muhim vosita hisoblanadi.	


**Bir-biriga mos keladigan kataklarni belgilang:**

1. Investistiyalar	A. kapitalni korxonani uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarmajmuasidir
2. kapital qo'yimlar	B. moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalarining qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olishini anglatadi
3. moliyaviy	C. markaziy va mahalliy byudjetdan, tadbirkorlikni

investistiyalar	qo'llab-quvvatlovchi turli xil fondlar tomonidan ajratiluvchi qaytarib bermaslik asosidagi mablag'lar
4. real investistiyalar	<b>D.</b> korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalari yaratish yoki mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va foyda (daromad) olishni ko'paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishidir
5. investitiya loyihasi	<b>E.</b> faoliyat yuritayotgan korxonani ma'naviy va jismoniy eskirgan qurilma va asbob-uskunalarni ishlab chiqarishni mexanizastiyalashtirish va avtomatlashtirish, texnologik bo'g'inlar va yordamchi xizmatdagi nomutanosibliklarni yo'qotish yo'li bilan almashtirish yordamida to'liq yoki qisman o'zgartirishni anglatadi
6. investistiyalarning ichki manbalari	<b>F.</b> pul mablag'larini kapital qurilish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni ifodalaydi
7. lizing	<b>G.</b> foydaning investitiya ehtiyojlariga ajratiluvchi qismi

**Mavzuga oid krossvord:**





### Savollar:

1. Korxonaning aksiyalar chiqarishi va sotishi natijasida olinuvchi mablag'lar qanday manba.
2. Faoliyat yuritayotgan korxonani \_\_\_\_\_ qo'shimcha ishlab chiqarish majmualarining navbatdagi qismlarini yangi loyiha asosida qurish yoki asosiy, qo'shimcha, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning amaldagi stexlarini kengaytirish yoki qurishni anglatadi.
3. Asosiy fondlarni qayta tiklash va o'stirish uchun sarflanuvchi moddiy, mehnat va pul resurslari.
4. Korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosida yangi ishlab chiqarish korxonalarini yaratish yoki mavjud korxonalarini zamonaviylashtirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni io'zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va foyda (daromad) olishni ko'paytirish maqsadida uzoq muddatli mablag'lar kiritilishi.
5. Moliyaviy-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalarining qurilma va asbob-uskunalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar yoki maxsus tashkil qilingan lizing kompaniyalaridan uzoq muddatga ijaraga olish.
6. Kapitalni korxonani uning ishlab chiqarish quvvati va boshqa sifat ko'rsatkichlarini kuchaytirish maqsadida rivojlantirish va kengaytirishga kiritishni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi.
7. \_\_\_\_\_ investitsiyalar qimmatbaho qog'ozlar, akstiya va obligatsiyalar sotib olish, pul mablag'larini banklarga foizolish maqsadida deposit hisob raqamlariga qo'yish bilan ifodalanadi.
8. Davlat va turli xil fondler tomonidan qaytarib berish sharti bilan beriluvchi kreditlar, jumladan imtiyozli kreditlar qaysi manba.
9. Eski sexlar o'rniga yangi sexlarni qurishga ruxsat beriladi
10. Qaysi investitsiyalar korxonalar, tarmoq va butun xalq xo'jaligining kuch-quvvatini belgilab beradi.
11. Yangi \_\_\_\_\_ ga yangi maydonlarda maxsus ishlab chiqilgan loyihalar asosida quriluvchi korxonalar, bino, inshoot va qurilmalar mansub
12. Texnik ..... qurollantirish ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

## **Mavzu: KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA TIJORAT SIRI**

Xavfsizlik bu murakkab va serqirra kategoriyadir. U asosan va ko'pincha ishlab chiqarishda foydalanilayotgan vositalarning xavfsizligi nuqtai nazaridan baholanadi va ko'rib chiqiladi. Shu sababli hozirgacha biz texnika xavfsizligi, piyoda xavfsizligi, oziq-ovqat xavfsizligi yoki zararsizligi kabi tushunchalarni uchratsakda, korxonaning xavfsizligiga hali duch kelganimiz yo'q.

Korxonaning xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- korxonaning va uning barcha bo'linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish;
- korxonaning mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish;
- tashkiliy va ishlab chiqarish barqarorligiga erishish, butlovchi qismlar yetkazib beruvchilarga yordamchi va hamkorlarga bir tomonlama qaram bo'lishga yo'l qo'ymaslik;
- barcha tuzilmaviy bo'g'inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash;
- mehnat unumdorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, samarali axborot bazasini rivojlantirish;
- korxonaning obro'sini oshirish.

**Xavfsizlik tamoyillari** - xavfsizlikni ta'minlash taktika va strategiyasiga bo'lgan asosiy talablar xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini tanlashdir. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qonuniylik tamoyillari;
- mustaqillik va mas'uliyat;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va foydalilik;
- maqsadli-dasturiy rejalashtirish;
- o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirish;
- mehnatni ilmiy tashkil qilish;
- oshkoralik va zaruriy maxfiylikning uyg'unligi;
- Ixtisoslashuv va yuqori kasbiy malaka.

**Korxonaning tijorat sirlari** ishlab chiqarish, texnologik ma'lumotlar, boshqaruv, moliya va shu kabilar bilan bog'liq bo'lib, ularni oshkor qilish korxonaning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlardir.

Mavjud nuqtai nazarlarga ko'ra, korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o'z ichiga quyidagi ma'lumotlarni qamrab oladi:

- korxonaning savdo aloqalari haqida;
- kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejalari haqida;

- ta'minotchi va iste'molchilar, tuzilgan shartnomalar haqida;
- ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag'lar va foyda hajmi haqida;
- bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi haqida;
- bank opretsiyalar haqida va hokazolar.

Korxonalarining maxfiylik shartlariga rioya qilmaslik natijasida yuzaga keluvchi yo'qotishlari umumiy ko'rinishda quyidagilarga olib keladi:

- ilmiy tadqiqotlarga litsenziya sotish imkoniyatlari pasayadi, fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ustunliklar yo'qotiladi, ilmiy-tadqiqot bo'linmalarining yo'nalishni o'zgartirishlari uchun xarajatlari o'sadi;
- ishlab chiqarish faoliyatida zarur bo'lga xom ashyo, texnologiya va hokazolarni sotib olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi (yoki raqobatchilar tomonidan sun'iy ravishda yaratiladi);
- korxonaning tadbirkorlikdagi sheriklar bilan hamkorligi cheklanadi, foydali shartnomalarni imzolash imkoniyatlari kamayadi, shartnoma majburiyatlarini bajarishda muammolar vujudga keladi;
- korxonaning yangi bozor strategiyasini yaratish, marketing tadqiqotlari tuzilmasini o'zgartirish va hokazolarga sarflanuvchi xarajatlari o'sadi;

#### **Tayanch iboralar:**

1. **xavfsizlik;**
2. **korxonada xavfsizligi;**
3. **maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlar;**
4. **xavfsizlik maqsadlari;**
5. **xavfsizlik tamoyillari;**
6. **tijorat siri;**
7. **korxonaning tijorat siri;**
8. **ishlab chiqarish sirlari.**

#### **Nazorat savollari:**

1. Xavfsizlik atamasiga ta'rif bering.
2. Korxonada xavfsizligi deganda nimani tushunasiz?
3. Xavfsizlik maqsadlari nimalardan iborat?
4. Xavfsizlik tamoyillarini izohlab bering.
5. Tijorat siri deganda nimani tushunasiz?
6. Ishlab chiqarish sirlarini izohlab bering.

#### **Test savollari:**

1. **Korxonaning tijorat siri - bu ...**
  - A. Davlat siri bo'lmagan xolda, korxonani ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatiga zarar keltirishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar
  - B. oldi-sotdi obyektini sifatidagi korxonani ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar
  - C. bu boshqaruv elementi bo'lib, korxonadan undan o'zini manfaatlarini himoya qilish uchun, davlat va bozor subyektlari orasidagi munosabatlarni o'rnatish uchun foydalaniladi

- D.korxonada foydalanadigan texnologiyalar haqidagi ma'lumot
2. **Korxonada xavfsizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari nimalardan iborat?**
    - A. korxonada va uning barcha bo'linmalari, mehnat jamoasining davlat tuzilmasi, xorijiy hamkorlar va raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda qonuniy huquqlarini himoya qilish
    - B. korxonada mulkini saqlash, undan oqilona va unumli foydalanish
    - C. barcha tuzilmaviy bo'g'inlardagi xodimlar orasida mehnat intizomini mustahkamlash
    - D. noto'g'ri javob yo'q
  3. **... - xavfsizlikni ta'minlash taktika va strategiyasiga bo'lgan asosiy talablar xavfsizlikning maqsad va vazifalarini hal qilishning to'g'ri yo'llarini tanlashdir. Nuqtalar o'rniga mos atamani qo'ying.**
    - A. Xavfsizlik tamoyillari
    - B. Xavfsizlik maqsadlari
    - C. Xavfsizlik turlari
    - D. Xavfsizlik yo'nalishlari
  4. **Xavfsizlik tamoyillari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**
    - A. mustaqillik va mas'uliyat
    - B. maqsadli-dasturiy rejalashtirish
    - C. mehnatni ilmiy tashkil qilish
    - D. yuqoridagilarning barchasi
  5. **Xavfsizlik tamoyillari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**
    - A. Ixtisoslashuv va yuqori kasbiy malaka
    - B. o'zaro aloqalar va muvofiqlashtirish
    - C. qonuniylik
    - D. noto'g'ri javob yo'q
  6. **Korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o'z ichiga qanday ma'lumotlarni qamrab oladi?**
    - A. korxonaning savdo aloqalari haqida
    - B. kapital hajmi va tuzilmasi, investitsiya rejalari haqida
    - C. ta'minotchi va iste'molchilar, tuzilgan shartnomalar haqida
    - D. barchasi
  7. **Korxonaning tijorat sirlari umumiy holda o'z ichiga qanday ma'lumotlarni qamrab oladi?**
    - A. bank o'pretsiyalar haqida
    - B. ishlab chiqarish hajmi, aylanma mablag'lar va foyda hajmi haqida
    - C. bahoni shakllantirish siyosati va tovarlar bahosining shakllanishi haqida
    - D. noto'g'ri javob yo'q
  8. **...korxonaning tuzilmaviy birligi bo'lib, xavfsizlik tartibini ishlab chiqish, o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, unga rioya qilinishini nazorat qilishni amalga oshiradi. Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.**
    - A. Xavfsizlik xizmati
    - B. Xavfsizlik maqsadi
    - C. Xavfsizlik tuzilmasi

#### D. Xavfsizlik tamoyillari

#### Mavzuga oid “Ha” yoki “Yo’q” texnologiyasi:

<b>T/R</b>	<b>Mulohazalar</b>	<b>javob</b>
<b>1</b>	Xavfsizlik – bu murakkab va serqirra kategoriyadir.	
<b>2</b>	Mahsulotlarning zamonaviy namunalari, ishlab chiqarish texnologiyasi, korxonalar va mamlakat uchun ma’lum bir xavf tug’dirmaydi.	
<b>3</b>	Xavfsizlik va tijorat sirlari muammolari hozirgi bozor va raqobatchilik sharoitlarida iqtisodiyot fanining, zamonaviy korxonalar iqtisodiyotining muhim bo’limlaridan biri hisoblanadi.	
<b>4</b>	Xavfsizlik tamoyillari - xavfsizlikni ta’minlash taktika va strategiyasiga bo’lgan asosiy talablar xavfsizlikning maqsad vazifalarini hal qilishning noqonuniy yo’llarini tanlashdir.	
<b>5</b>	Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida, har bir alohida holatdagi aniq harakat bo’lib hisoblanadi.	
<b>6</b>	Xavfsizlik hodisalarning oldini olish va ogohlantirish chorasi sifatida, har bir alohida holatdagi aniq harakat bo’lib, korxonalar xarakteri, uning joylashuvi, ahamiyati va hokazolarga bog’liq bo’lmaydi.	
<b>7</b>	Mazkur jarayonda xavfsizlik tizimining o’zini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.	
<b>8</b>	Rahbar xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqarishning muayyan sharoitlariga nisbatan ishlab chiqishda shaxsan ishtirok etishi zarur emas.	
<b>9</b>	Xavfsizlik konsepsiyasi birinchidan, korxonalarining maqsad va vazifalariga zid kelmasligidir.	
<b>10</b>	ikkinchidan, korxonalar xavfsizligiga bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan tashqi muhit ta’sirini inobatga olishi zarur emasligidir.	
<b>11</b>	Korxonalar o’z faoliyatining muhim yo’nalishlari xavfsizligini ta’minlash uchun muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.	
<b>12</b>	Korxonalar rahbarlari mehnat jamoalarini doimiy ravishda xavfsizlikni ta’minlash natijalari to’g’risida xabardor etishlari shart emas.	
<b>13</b>	Faqat zarur hollardagina xavfsizlik chora-tadbirlari maxfiy bo’lishi mumkin.	
<b>14</b>	Xavfsizlik chora-tadbirlarining maxfiyligi korxonalar bo’limlarini zaruriy qoidalarni qo’llash va ularga amal qilishini nazorat qilishni maxsus tashkil etishni ko’zda tutmaydi.	



<b>15</b>	Hozirgi jamiyatning axborotlashtirish va elektronlashtirish sharoitlarida korxonalarining xavfsizligini ta'minlash uchun tijorat faoliyatining xavfsizligini ta'minlashning barcha shakl va usullarini qamrab oluvchi tizim amal qilishi lozim.	
-----------	---	--

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Maxmudov E.X. Korxonalar iqtisodiyoti: O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005.
2. Волков О.И. Экономика предприятия, Учебник. М., “ИНФРА-М”, 2000.
3. Волкова О.И., Девяткина О.В. Экономика предприятия, Учебное пособие –М.: “ИНФРА-М”, 2008.
4. Кантор Э.А. Экономика предприятия, Учебное пособие – СПб: Питер, 2009.

## **MUNDARIJA:**

<b>KIRISH.....</b>	
<b>KORXONA IQTISODIYOTI KURSINING MAZMUNI VA VAZIFASI.....</b>	
<b>KORXONA MUSTAQIL XO'JALIK FAOLIYATINI YURITUVCHI BOZOR SUBYEKTI.....</b>	
<b>KORXONANI TASHKIL ETISH VA FAOLIYATINI TO'XTATISH.....</b>	
<b>KORXONANI BOSHQARISH.....</b>	
<b>KORXONA FAOLIYATINI REJALASHTIRISH VA BASHORAT QILISH.....</b>	
<b>ISHLAB CHIQRISHNING IQTISODIY VA IJTIMOY SAMARADORLIGI.....</b>	
<b>KORXONANING ASOSIY FONDLARI VA ISHLAB CHIQRISH QUVVATI.....</b>	
<b>KORXONANING AYLANMA MABLAG'LARI.....</b>	
<b>KORXONADA XODIMLAR, MEHNATNI TASHKIL ETISH VA HAQ TO'LASH.....</b>	
<b>ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI, FOYDA VA RENTABELLIK.....</b>	
<b>KORXONANING INVESTITSION FAOLIYATI.....</b>	
<b>KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA TIJORAT SIRI.....</b>	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	